

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

ABDULHAQOV QOBULJON TO‘LQINJON O‘G‘LI

**“DAVLAT XARIDI UCHUN TENDERLARNI TASHKIL ETISH
VA BAHOLASH AMALIYOTI”**

5340600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedra mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

« ____ » _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar: _____ i.f.n., dots. A. Norqulov

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA:

	KIRISH.....	3
I-BOB.	IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASHNING NAZARIY, TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....	9
	1.1. Davlat xaridining iqtisodiy mazmuni, tenderlarni tashkil etish va baholashning nazariy asoslari.....	9
	1.2. Davlat xaridini tenderlar asosida tashkil etish va baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	21
	1.3 Davlat xaridlari uchun tenderlarni tashkil etish va baholashda xorijiy davlatlar tajribasi	35
	I-bob bo'yicha xulosalar.....	40
II-BOB.	DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI.....	42
	2.1. Davlat xaridini amalga oshirishda byudjet tashkilotlari va kichik biznes sub'ektlari faoliyati tahlili.....	42
	2.2. Davlat va korporativ xaridlarning amal qilish mexenizmlari.....	65
	II -bob bo'yicha xulosalar.....	72
III-BOB.	DAVLAT XARIDI UCHUN TENDERLARNI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	74
	III - bob bo'yicha xulosalar	80
	XULOS VA TAKLIFLAR.....	81
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	85

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mablag'larini samarali boshqarish, shuningdek, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini ushbu sohaga kengroq jalb etish kabi qator maqsadlarni ko'zlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: “2011 yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqishi va amalda qo'llash, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi topshiriladi”¹. Shundan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilda qabul qilingan “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida” gi PQ-1475 sonli qarori, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishga bo'lgan jiddiy e'tiborni bildiradi. Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar mahkamasidagi ma'ruzalarida²: Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi.

¹ Karimov I.A. “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. - Xalq so'zi» gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.

² Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. “Xalq so'zi” gazetasi 17.01.2015 yil

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

Davlat mablag'larini oqilona boshqarish, xarid tizimi modelini respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Tenderlar orqali xaridni tashkil etishda ochiqlik va erkin raqobatni ta'minlaydigan mexanizmni tashkil etish, baholar monitoringini takomillashtirish, davlat buyurtmalari uchun shartnoma shartlarini bajarilishi yuzasidan mas'uliyatini yanada oshirish, tenderdan tashqari savdolarni xolisligini ta'minlash kabi qator masalalarni ham ilmiy-uslubiy jihatdan, ham amaliy jihatdan o'rganish davlat xaridi tizimini boshqarishning dolzarbligini belgilab beradi.

Davlat xaridini tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatini tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes sub'ektlarini ishtirokni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Davlat xaridini boshqarish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga amaliy-uslubiy ko'maklashish, davlat mablag'larini samarali foydalanish modelini shakllantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish,

xarid tizimidan iqtisodiyot sohalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida foydalanish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi aniq vazifalar belgilab olindi:

-respublikamizda davlat xaridini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, xaridni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat etishni bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

-tender va tenderdan tashqari savdolarini tashkil etishni boshqarish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirish;

-davlat xaridi tizimini boshqarish orqali kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishiga ta'sir etishning mexanizmlarini shakllantirish yuzasidan takliflar kiritish;

-davlat xaridini boshqarishning elektron tizimi strategiyalari ishlab chiqish bo'yicha amaliy takliflar berish;

-O'zbekistonda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini zamon talablariga mos modelini shakllantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu sohaga doir Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining, tegishli vazirlik va idoralarning qator tegishli qarorlari mavjud. Ammo shunday bo'lsada, "Davlat xaridi to'g'risida"gi qonunni qabul qilishga bo'lgan amaliy talab kuchayib bormoqda. Mazkur qonunni ishlab chiqishda xorijiy amaliyotni chuqur o'rganish, davlatning investitsion loyihalari bo'yicha qarorlar qabul qilish sifatini oshirish, davlat ehtiyolari uchun savdolarga xususiy sektor bilan hamkorlikni o'rnatish(Public-Private Partnerships) kabi jarayonlarni to'la qamrab oladigan mukammal qonuniy bazani shakllantirish talab etilmoqda.

Davlat xaridi sub'ektlari tomonidan kundalik operatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga chiqayotgan muammolarni hal etishda amaliy ko'maklashish, xaridni amalga oshirishning elektron savdolarini tashkil etish, uning uzoq muddatli strategiyasini shakllantirish, tanlovlarda yuzaga keladigan munozaralarni hal etish

kabi qator muammolar, mazkur bitiruv malakaviy ishining ustuvor maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan bevosita bog'liq mavzularda ish olib borgan. Xususan, Hozirgi kunda Respublikamizda shakllangan Davlat xaridi tizimiga oid izlanishlar olib borgan iqtisodchilardan A.Vahobov, E.Gadoev, T.Malikov, O.Olimjonov, N.Haydarov, U.Burxanov va boshqalarni kiritish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining predmetini. Davlat xaridi jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar faoliyati bilan bog'liq xuquqiy me'yoriy jihatlarini o'z ichiga oladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog'liq barcha jarayonlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, BMTning Taraqqiyot dasturi doirasida amalga oshirilayotgan "Davlat moliyasi islohotlari" loyihasi dasturlari, Moliya vazirligi tasarrufidagi byudjet muassasalari, kichik biznes sub'ektlarining tender savdolaridagi ishtiroki yuzasidan ma'lumotlar hamda Byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va kichik biznes sub'ektlari tomonidan yetkazib berilayotgan tovar (ish, xizmat)larning o'rtacha narxi statistik ma'lumotlari asos qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va xorijda hamda respublikamizda ma'lum olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ishni yozishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyruqlaridan, yo'riqnomalaridan hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish borasidagi vazifalar haqidagi ta'limotlari va 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2015 yilda

iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2015 yil 16 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2012 yil 20 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” hamda “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2011 yil 21 yanvarda bo'lib o'tgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida hamda “Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi “Asosiy vazifamiz–vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” ma'ruzalarida belgilab berilgan asosiy ustuvor vazifalar bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari nomli asarlari nazariy asos qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishda oldinga surilgan ilmiy-amaliy tUSDagi qoida, g'oya, fikr-mulohaza, xulosa va takliflardan: yangi tahrirdagi davlat byudjetini moliyalashtirish strategiyasini belgilash; byudjet siyosatini isloh qilish va takomillashtirish va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan keyingi ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

«Davlat xaridi» kursi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda foydalanilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB: IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASHNING NAZARIY, TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat xaridining iqtisodiy mazmuni, tenderlarni tashkil etish va baholashning nazariy asoslari.

Mamlakatimizda davlat xaridi tizimini isloh etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega.

Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin egallaydi fondlar hamda investitsiyani samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. O'zbek tilidagi "xarid" termini (inglizchada, procurement - prokyurment) "sotib olish" ma'nosi bilan bir ma'noda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir³. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog'liq barcha jarayonlar davlat xaridi tizimini yuzaga keltiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

-iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

³ U.Burxanov. Gosudarstvennie zakupki. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

-ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar).

Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Evropa mamlakatlarida davlat xaridini tovarlar, ishlar va xizmatlarga ajratish bo'yicha YuNSITRAL⁴ tomonidan taklif etilgan tasniflashga asosan:

Tovarlarga - xom-ashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni etkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi.

Ishlar deganda – qurilish, ta'mirlash, binoni, inshoot va ob'ektlarni buzish yoki ta'mirlash, bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari (masalan, geodeziya va burg'alash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali sur'atga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo'lmasa) tushuniladi.

Xizmatlarga esa – tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti tushuniladi. Xaridning turli kategoriyalari bo'yicha xaridni qonuniy tartibga solish (g'olibni aniqlashda tender shartlari va usullaridan foydalanish) turlicha bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarining sub'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

⁴ (United Nations Commission on International Trade Law) –Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMTning Komissiyasi. 1966 yilda BMTning xalqaro savdo huquqini yagonalashtirish bo'yicha qarori asosida tashkil etilgan. 36 ta davlat vakillaridan iborat (14 Evropa va boshqa davlatlar, 16 Afro-Osiyo va 6 Lotin amerikasi davlatlari). Shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan.

-Davlat buyurtmachilari byudjet mablag'larini oluvchilar va byudjet hamda byudjetdan tashqari fondlar mablag'larini taqsimlovchilar:

-byudjet mablag'lari oluvchi tashkilotlar;

-byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning ijroiya direktsiyalari;

-Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, viloyatlar hokimligi va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;

-hukumat kafolati ostida xalqaro grant va qarz olgan hamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;

-davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari.

Tashqi nazorat organlari (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi);

Hukumat (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi);

Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari (nazoratni tashkil etuvchi organlar):

-Moliya vazirligi;

-Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;

-Davarxitekqurilish;

Tovarlar va xizmatlar etkazib beruvchilar: tovarlar (xizmatlar, ishlar) etkazib beruvchi xo'jalik sub'ektlari.

-Xaridni tashkil etish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:

-xizmat ko'rsatuvchi banklar;

-transport-ekspeditorlik kompaniyalari;

-maslahat va ekspertiza hamda boshqa tashkilotlar;

-mavjud qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratining dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovatsion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish har bir mamlakat hukumatlari oldida muhim masala bo'lib qolmoqda.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi:

-davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;

-davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish;

-davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi ko'rsatilgan yo'nalishlardagi muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa sub'ektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Xususan, davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha tizimli yondoshuvga bo'lgan talab hamda davlat xaridining iqtisodiyotning ayrim sohalariga bo'lgan ta'sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari shakllantirilmoqda.

Tender savdolari - dunyo amaliyotida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid etishning asosiy instrumenti sifatida qaraladi. Savdolarni tashkil etishning tartibi va shartlari umumqabul qilingan xalqaro me'yorlar va qoidalar bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan xarid etish jarayonlarida yaqqol nomoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tenderlar orqali tovarlar va xizmatlarni xarid etish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha me'yorlari va boshqa majburiy, tavsiya etiladigan hujjatlar bilan begilab beriladi.

Tender savdosidan ko'zlangan asosiy maqsad, tovarlar va xizmatlarni past baholarda va optimal sifat ko'rsatkichlari asosida sotib olishdan iborat. Bundan

ko'rinib turibdiki, tender savdolarida g'olibni aniqlovchi asosiy omil – nomzod taqdim etgan taklifda sifat va baho ko'rsatkichning nisbati hisoblanadi. Ammo, ushbu ikki ko'rsatkichning nisbati savdo predmetidan (tovarlar yoki xizmatlar) va ayrim olingan savdolarini o'tkazishda ishlatiladigan tender hujjatlari yo'riqnomalaridan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin. Tender savdolarining, yoki o'zbek tilidagi nashrlarda uchraydigan “tanlov” asosida tashkil etiladigan savdolarning bir-nechta turlari mavjud.

Savdolar ishtirokchilarga ko'ra (ochiq, yopiq va boshqalar), ishtirok etishga ruxsat berilishiga ko'ra (kvalifikatsion tanlov asosida yoki ushbusiz), geografik belgilariga ko'ra (xalqaro, milliy, mahalliy), tanlab olish jarayoniga ko'ra (oddiy, soddalashtirilgan) va boshqalar. Shuningdek, savdolarning klassifikatsiyasining yana bir turi bu – uning predmetiga qarab, masalan, tovarlar etkazib berish uchun, bajariladigan ishlar va xizmatlar ko'rsatish uchun kabi turilarga bo'linadi. Mazkur klassifikatsiya quyidagilarni nazarda tutadi:

Tovarlar etkazib berish uchun savdolar –davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Savdoning predmeti bo'lib, asbob-uskunalarni ishlab chiqish, tayyorlash, etkazib berish, montaj va uni ishga tushirish, shuningdek etkazib berilgan tovarlarni keyingi ekspluatatsiyasi bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar, masalan, texnik xizmat ko'rsatish, remont, personalni o'qitish va sotuvdan keyingi xarajatlar. Bunda, savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va mol etkazib beruvchidan iborat.

Bajariladigan ishlar uchun savdolar – pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash hamda kerakli xizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida ob'ektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatatsiya xizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va pudratchilardan iborat.

Xizmatlar ko'rsatish uchun savdolar – texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat etish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va

maslahatchilardan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, savdolar turli xil tusga ega.

Sanab o'tilgan savdolar uchun, dunyo amaliyotida o'ziga xos tender va shartnoma hujjatlari mavjud bo'lib, uning tarkibi va ma'nosi, yirik xalqaro moliya tashkilotlari (Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa hamjamiyati komissiyasi, Osiyo taraqqiyot banki va hokozolar) tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar, har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, me'riy va uslubiy ko'rsatmalari bilan muvofiqlashgan.

Davlat xaridini amalga oshirish bo'yicha shartnomalarni tuzish va ijro etish - ikki bosqichda amalga oshiriladi:

shartnomani tuzish;

shartnomani ijrosining sifati va muddatlarini baholash.

Shartnomani tuzish:

to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar – ishtirokchilar tomonidan kelishilgan shartlar asosida tuziladi;

yarmarka va birja savdolari - yarmarka va birja savdolarining o'rnatilgan tartiblari asosida amalga oshiriladi (shartnomani tuzish savdo o'tgandan keyingi 5 kun muddat ichida amalga oshiriladi);

ochiq va yopiq tanlovlar – xaridni ayrim olingan turlarini amalga oshirishni tartibga soluvchi qonunchilik aktlari orqali amalga oshiriladi. Shartnomalarni tuzish muddati hamma hujjatlarda ham o'z aksini topmagan. Fuqarolik kodeksiga muvofiq shartnomalarni imzolash muddati 30 kalendar kundan ortmasligi kerak.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YaIMning uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YaIMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi⁵. Ushbu holatni inobatga olib davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi:

⁵ O problemax upravleniya gosudarstvennimi zakupkami v Respublike Uzbekistan i napravleniyax sovershenstvovaniya. Analiticheskaya zapiska. UNDP. Tashkent-2008

-davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi;


-ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;

-sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etish mumkin;

-kichik biznes vakillar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarli mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlat xaridini tashkil etishda xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Davlat xaridini tashkil etish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganib, quyidagi turli modellari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

1-rasm

Davlat xaridini tashkil etish modellari⁶



⁶ U.Burxanov. Gosudarstvennie zakupki. <http://el.tfi.u>

Markazlashgan model – bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiyy hukumatning yagona tarkibiy bo'linmasi- xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Markazlashmagan (taqsimlangan) model - bunda davlatning buyurtmachisi o'z ixtisosligi buyicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi.

Qisman markazlashgan modelda esa, xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Davlat xaridi jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat, davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, xaridning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishdan iboratdir.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimini islohotlar nafaqat o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000 yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lishsa, hozirgi sharoitda ular qurilish-montaj va loyihalarning turli tumanligi va sifat bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishmoqda. Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratining dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovatsion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish muhim masala bo'lib qolmoqda.

Davlat xaridini rejalashtirish mamlakat byudjetini tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi (investitsion dasturni tayyorlash jarayoni bundan mustasno bo'lib, u Vazirlar Mahkamasining 2003 yilning 12 sentyabrida 395-sonli qaroriga asosan tayyorlanadi). Davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan tovar va xizmatlar, davlat organlari va tashkilotlarining xarajatlar bo'limlarida mos ravishda aks ettiriladi. Ushbu xarajatlar va ular uchun zaruriy moliyaviy manbalar choraklar bo'yicha taqsimlangan holda rejalashtiriladi.

Davlat xaridini tashkil etishning yangicha tamoyillarga asoslangan tizim shakllantirilar ekan, tabiiy ravishda, bu sohada o'z echimini kutayotgan qator mavjud muammolar mavjudligini ko'rsatish mumkin. Jumladan:

-davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi mamlakatimiz miqiyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi;

-davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani etarli darajada rivojlanmaganligi;

-byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklarning mavjudligi;

-davlat xaridini amalga oshiruvchi va uni nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarning etishmasligi;

-xarid tizimi hamda uning mexanizmlarini shaffof emasligi;

-davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimining etarlicha rivojlanmaganligi;

-kichik va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridi tizimida ishtiroki bo'yicha tajribalarning etishmasligi;

-davlat xaridini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishning zarurligi va boshqalar.

Davlat xaridini tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etadi.

Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat

organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatini tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes sub'ektlarini ishtirokni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat xaridlari yoki davlat ehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi davlat muassasalari tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonining ajralmas qismidir.

Davlat xaridiga e'tibor uning muhimligidan kelib chiqadi. Birinchidan, davlat xaridlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan davlat sektorining puxta ishlashi uchun uni zarur bo'lgan tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turadi. Ikkinchidan, jamlama byudjet xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridlari uning muvozanat saqlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuksak samaradorligini ta'minlash o'ta muhimdir. Uchinchidan, davlat xaridlari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan kuchli vositadir. Uning yordamida kichik biznesni, sanoatning innovatsion sohalari rivojlanishini rag'batlantirish mumkin.

Mamlakatimizda davlat xaridini takomillashtirishga alohida e'tabor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etish to'g'risida" gi qarori qabul qilingan. Unga muvofiq davlat xaridlarining shaffofligini oshirish maqsadida 2011 yilda uning yangi turi – elektron auktsion savdolar joriy etildi. Shuningdek, maxsus Internet – portal orqali xaridlar to'g'risida ma'lum qilish qarori qabul qilindi, davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil etildi.

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi 15 yil davomida shakllanib, mazkur muddat davomida doim o'zgarib kelgan. Avvalambor, unga davlat buyurtmalarini joylashtirish uchun konkurs savdolarini o'tkazish talablari kiritilib, tender va xaridlarni o'tkazish tartibining asosi yaratilgan. Shu bilan birga mazkur tizim yanada rivojlantirish va takomillashtirishni talab qilmoqda.

Davlat xaridlari bo'yicha alohida turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati hukumat komissiyasi tomonidan belgilanishi yo'lga qo'yilgan. Respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etilgan elektron savdo orqali har bir shartnoma 300 AQSH dollaridan 100 ming AQSH dollarigacha teng bo'lgan ekvivalent miqdorida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Moliya vazirligining G'aznachiligi davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi etib tayinlangan.

Yurtimizda tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida Respublika tovar-xomashyo birjasi va uning hududiy bo'limlari orqali tashkillashtiriladigan alohida tovar (ish, xizmat) turlariga davlat xaridlarini elektron portal orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Elektron savdolar Respublika tovar-xomashyo birjasi, uning tumanlardagi brokerlik kontoralari va savdo maydonchalarida tizimli tarzda tashkil etilmoqda. Turli mamlakatlardagi davlat xarid hajmi yalpi ichki mahsulotning 5 foizdan 20 foizgacha bo'lib, davlat byudjetining yarmigacha bo'lgan qismini tashkil qilishi mumkin. Bunday miqyoslar nafaqat davlatni har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar, ishlar va xizmatlarning eng katta iste'molchisiga, balki o'z harakatlari iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy munosabatlar sub'ektiga aylantiradi.

1.2. Davlat xaridini tenderlar asosida tashkil etish va baholashning tashkiliy-huquqiy asoslari

Bugungi kunda, mamlakatimizda davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi roli katta ahamiyat berildi. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun esa tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur bo'ladi.

Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun uning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhim masaladir.

Bundan tashqari, uning yordamida kichik biznesni, sanoatning innovatsion sohalarini rivojlanishini rag'batlantirish mumkin. Umuman, davlat xaridi degani davlat ehtiyojlari uchun tovar, xizmat va ishlar to'liq yoki qisman byudjet mablag'lari evaziga sotib olinishidir. U o'z ichiga maktabga oddiy ruchka, qog'oz sotib olishdan boshlab, maktablar kollejlari, yo'l qurilishigacha qamrab oladi.

Davlat xaridlarining vazifalaridavlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur tovar, xizmat va ishlar bilan o'z vaqtida, kerakli miqdorda va turda, sifatda va narxda ta'minlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga ko'proq xo'jalik sub'ektlarini jalb qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqa qaror andozalarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Davlat xaridlari shaffoflik, samaradorlik, qatnashchilarga teng va adolatli yondashish, hisobot berish va javobgarlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ushbu masala mohiyatidan kelib chiqqan holda qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Ayniqsa, davlat xaridlaridan mamlakat ishlab chiqaruvchilarini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishning qo'shimcha vositasi sifatida foydalanilayotgani shular jumlasidandir. Hozirda davlat xaridlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli 11 foizini tashkil qilmoqda, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda 800 mingdan ziyod kishi ishlamoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, Prezidentimizning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida 2011 yilda maxsus kvotalar ajratirish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqish va amalda qo'llash,

kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi yuklatilgan edi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida esa 2011 yil 7 fevralda mamlakatimiz Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi, 2011 yil 1 aprelda Vazirlar Mahkamasining "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilinib, hozirda ushbu hujjatlar asosida muayyan ishlar amalga oshirildi. Mazkur qarorlar ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan choralar natijasida joriy yilning birinchi choragi davomida bo'lib o'tgan 61 mingtadan ziyod savdolarida 43,9 mlrd. so'mlik mahsulot (ish, xizmat)lar etkazib berish bo'yicha bitimlar tuzilgan.

Ushbu bitimlarning 92 foizi kichik biznes sub'ektlari ishtirokida amalga oshirilgan. Bu davrda qiymati 500 mln. so'mgacha bo'lgan qurilish va rekonstruktsiya ishlari bo'yicha tanlovlarning hammasida kichik biznes sub'ektlari g'olib deb topilgan. Bundan tashqari, elektron savdolar orqali amalga oshirilgan davlat xaridlariga jalb etilgan mahsulot etkazib beruvchilarning 84,4 foizi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etgan. Bu kabi ko'rsatkichlar salmog'ini yanada oshirishda davlat xaridlari jarayonining huquqiy asosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridlari bilan bog'liq qonunchilik haqida gap ketganda shuni ta'kidlash kerakki, bu boradagi faoliyat Fuqarolik va Fuqarolik-protsessual kodekslari hamda "Xo'jalik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, 50 dan ziyod qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinmoqda. Ammo tahlillar bu sohada hali echilmagan muammolar borligini, qonunchilikni takomillashtirish zarurligini, davlat xaridlari tizimiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni kengrok jalb qilish yo'llarini ochish kerakligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, davlat xaridlarining huquqiy asoslari ko'pchilik hollarda umu to'liq bo'lmagan hamda barcha tovarlar va xizmatlarni qamrab olmagan tarzda

shakllangan. Davlat xaridlarining barcha bosqichlari, davlat xaridlari bo'yicha asosiy tushunchalar ham belgilanmagan, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshilik, noaniklikning mavjudligi turli tushunmovchiliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Umuman, davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikdagi asosiy muammolar ushbu jarayonning barcha jihatlarini o'z ichiga qamrab olgan yaxlit huquqiy tizimning yaratilmaganligi bilan izohlanadi.

Davlat xaridi mexanizmini (jarayonlarini) tartibga soluvchi qonunchilik bazasining tahliliga ko'ra, xaridning ayrim turlari etarlicha tartibga solinmaganini, tanlov yoki elektron auksion savdolar orqali xarid qilinadigan tovar (ish, xizmatlarga) buyurtmachilar tomonidan dastlabki narxni belgilash mexanizmi takomillashtirishni talab etishini, elektron auksion savdolar jarayonini tartibga soluvchi ayrim ma'yoriy hujjatlarda noaniqliklar mavjudligini alohida ta'kidlash kerak. Davlat xaridi tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bu qonuniy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaldagilarini takomillashtirish, byudjet tashkilotlarida xarid jarayonini tashkil etish va yuritish bo'yicha uslubiy bazani yaratish, byudjet tashkilotlarida xarid jarayoniga mas'ul bo'lgan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, davlat xaridlari mexanizmini mukammallashtirishdan iboratdir.

Xususan, tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizomning yangi tahririni, Tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha savdolarini o'tkazish to'g'risidagi, Tovar (ish, xizmat)larni to'g'ridan-to'g'ri va soddalashtirilgan usulda xarid qilish to'g'risidagi Nizomlarni ishlab chiqish, davlat xaridlari bo'yicha boshqa qonun osti hujjatlarni unifikatsiyalash ham muhim masalalardan sanaladi.

Bundan tashqari, Byudjet tashkilotlarining xarid jarayoni barcha bosqichlarini, ya'ni xaridni rejalashtirishdan tortib, shartnoma imzolash va uning ijrosini ta'minlashni nazarda tutuvchi "Davlat xaridlari bo'yicha standartlar"ni ishlab chiqish zarurati kun tartibida turibdi. Bu yo'nalishda ayniqsa, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish o'ziga xos ahamiyatga molikdir. Ma'lumki, davlat xaridlarining tender savdolari, tanlov, elektron auksion savdolar, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, kapital qurilish bo'yicha

tanlov savsavgolari kabi turlari mavjud. Shu boisdan, ishlab chiqiladigan qonun loyihasi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda davlat xaridlarining alohida turi qaysi holatlarda qo'llanilishini aniq ko'rsatishga, har bir tur davlat xaridlarida bajariladigan jarayon tartiblarini aniq bayon qilishga, elektron savdolarining aniqlashtirilgan tartibini hamda elektron xaridlarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi lozimdir.

“Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonunni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish davlat sektorining tovar (ish, xizmat)larga bo'lgan ehtiyoji to'liqroq va samarali ta'minlanishiga, ichki raqobatning rivojlanishi va umumiy raqobatbardoshlik yuksalishiga, kichik biznesning davlat xaridlaridagi ulushining oshishiga, sanoat va boshqa ustuvor sohalar rivojlanishining jadallashishiga olib kelishi shubhasiz.

Zero, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun uning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhim masaladir. Bundan tashqari, uning yordamida kichik biznesni, sanoatning innovatsion sohalarini rivojlanishini rag'batlantirish mumkin. Umuman, davlat xaridi degani davlat ehtiyojlari uchun tovar, xizmat va ishlar to'liq yoki qisman byudjet mablag'lari evaziga sotib olinishidir.

U o'z ichiga maktabga oddiy ruchka, qog'oz sotib olishdan boshlab, maktablar, kollejlarda, yo'l qurilishigacha qamrab oladi. Davlat xaridlarining vazifalari davlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur tovar, xizmat va ishlar bilan o'z vaqtida, kerakli miqdorda va turda, sifatda va narxda ta'minlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga ko'proq xo'jalik sub'ektlarini jalb qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro andozalarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Davlat xaridlari shaffoflik, samaradorlik, qatnashchilarga teng va adolatli yondashish, hisobot berish va javobgarlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ushbu masala mohiyatidan kelib chiqqan holda qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ayniqsa, davlat xaridlaridan mamlakat ishlab chiqaruvchilarini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishning qo'shimcha vositasi sifatida foydalanilayotgani shular jumlasidandir. Hozirda davlat xaridlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli 11 foizini tashkil qilmoqda, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda 800 mingdan ziyod kishi ishlamoqda.


O'zbekiston Respublikasida davlat xaridning tashkiliy shakllari sotib olish jarayoni va mol etkazib beruvchini (xizmat ko'rsatishni) tanlash, davlat sotib oluvchi organi tomonidan, quyidagi (2-rasmga qarang) yo'llar bilan mustaqil amalga oshiriladi:

2-rasm.

Davlat xaridining tashkiliy shakllari⁷

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom"ga asosan.

O'tkazish usullariga ko'ra tenderlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.



- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;
- yarmarka va birja savdolarida;
- ochiq va yopiq tenderlar orqali.

Quyidagilar tender savdolarini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi:

- xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltiriladigan davlat byudjeti, davlat byudjetida jamlanadigan byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'laridan, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- xarid qilinadigan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sifatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom"ga asosan o'tkazish usullariga ko'ra tenderlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Tender turi buyurtmachi tomonidan belgilanadi ochiq tenderlarda, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin yopiq tenderlar istisno hollarda VMning tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi.

Yuqoridagi nizomga muvofiq tender savdolari 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bitta shartnoma bo'yicha tovarlar etkazib berishni amalga oshirishda o'tkaziladi. Qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam bo'lgan bitta shartnoma bo'yicha tovarlar etkazib berishni amalga oshirishda, xaridlar eng yaxshi tanlov takliflarini tanlab olish asosida amalga oshiriladi

Quyidagi hollarda tender (tanlov) o'tkazmasdan tovar etkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan shartnomalar tuzilishi mumkin:

1) tovarlar etkazib berish, tabiiy monopoliyalar sub'ektlari faoliyati sohasiga tegishli bo'lganda;

2) tovarlar birja orqali xarid qilinganda;

3) shartnoma tuzish vaqtida eng kam ish haqining o'n baravaridan oshmagan summada tovarlar sotib olinganda;

4) tarix va madaniyat yodgorliklari sifatida davlat muhofazasiga olingan hamda davlat muzey, kutubxona, arxiv fondlarini, kino-foto fondini va boshqa shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun mo'ljallangan tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniyat ahamiyatiga molik madaniyboyliklar(sur'atlar, haykallar, adabiy asarlar va boshqalar), shu jumladan, muzey predmetlari va muzey to'plamlari, shuningdek, nodir va qimmatli nashrlar hamda qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari, jumladan, ularning nusxalarini etkazib berishni amalga oshirganda;

5) tovarlarni sotishga alohida huquqi bo'lgan faqat bitta etkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish mumkin bo'lganda;

6) tuzilgan shartnomaning shartlari dastlabki shartnoma umumiy summasining 20 foizidan oshmaydigan summaga teng qo'shimcha ishlarni bajarish maqsadida o'zgarganda;

7) bajarish yoki xizmat ko'rsatishni amalga oshirish faqat davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan yoki ularga bo'ysunuvchi davlat muassasalari va korxonalari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq mumkin bo'lgan ishlar yoki xizmatlarga ehtiyoj tug'ilganda;

8) engib bo'lmas kuchlar (tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar, avariya va hokazolar) oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun zarur bo'lgan muayyan tovarlarga tezkor ehtiyoj tug'ilganda, buning natijasida vaqtning yo'qotilishi talab qilinadigan boshqa buyurtmani joylashtirish usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaganda (tegishli moliya organlari kelishuvi bo'yicha);

9) etkazib beruvchilarning yoki shartnomada ularning manfaatdorligi yo'qligi sababli buyurtmachi tomonidan tender (tanlov) bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida; agar buyurtmachi uzoq tumanlarda joylashgan bo'lsa, buyurtmachining faoliyat ko'rsatish hududida va yaqin joylashgan tumanlarda faqat bitta etkazib beruvchi mavjud bo'lsa; shuningdek, boshqa joylardan narx kotirovkalarini olish hech qanday foyda olish yoki iqtisod qilish aniqlanganda; transport xarajatlari uchun narxlar oshib ketishiga olib kelganda. Bunda yagona etkazib beruvchiga buyurtmalarni joylashtirish tegishli moliya organlar bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Engib bo'lmas kuchlar oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun tovarlarga shoshilinch ehtiyoj vujudga kelgan taqdirda yoki shartnomada ularning manfaatdorligi yo'qligi sababli tenderni bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida, buyurtmachi tender o'tkazmasdan yagona etkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorni kelishish uchun tegishli moliya organlariga yozma murojaat yuboradi. Yagona etkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorning kelishish muddati, tegishli moliya organiga kelishish to'g'risida murojaat kelib tushgan kundan boshlab, o'n kundan oshmasligi kerak. Buyurtmachi tomonidan tender bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida yagona

etkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda uni kelishish uchun tegishli moliya organiga murojat qiladi.

Tender bo'yicha xaridlarda qatnashuvchi mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (etkazib beruvchilari) bilan hisob-kitoblar so'mlarda amalga oshiriladi. Qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (etkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish tenderlar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari hisoblanadi. Tender savdolari xaridlarning faqat manbalari mavjudligi va mablag' bilan ta'minlash miqdorlari to'g'risida tasdiqnomalar (moliya organlari yoki byudjetdan tashqari jamg'armalarni tasarruf etuvchilarning bildirish xati, xorijiy kreditorlar bilan hukumat kafolati ostida imzolangan kredit shartnomalari, xorijiy grantlar berish to'g'risidagi bildirish xati va boshqalar) mavjud bo'lgan hajmi bo'yicha e'lon qilinishi mumkin. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2000 yildagi №456-sonli Qarorida xom-ashyo, material, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish tartibining asosiy ko'rinishlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- tender savdolari;
- eng yaxshi taklifni tanlab olish;
- elektron auksion savdolar;
- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni tuzish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2000 yildagi № 456-sonli Qarorida tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan yuqori summadagi savdolar uchun amalga oshirilishi, g'olib tender komissiyasi qarori bilan aniqlanishi, 1 mln. AQSh dollaridan yuqori summada savdo amalga oshirilganda tender komissiyasi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilishi belgilangan. Shuningdek, tenderlar ochiq yoki yopiq (Vazirlar Mahkamasining qarori bilan) tarzda bo'lishi belgilangan.

Eng yaxshi taklifni tanlab olish. 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan savdolar buyurtmachi tomonidan tuziladigan maxsus

komissiya qarori bilan tender savdolarini o'tkazmasdan eng yaxshi taklifni tanlab olish asosida o'tkaziladi. Ammo, davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan ro'yxati aniqlanadigan mahsulot, ishlar va xizmatlar alohida turi bundan mustasno.

Elektron auktsion savdolar davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan ro'yxati aniqlanadigan mahsulot, ishlar va xizmatlar alohida turlari bo'yicha amalga oshiriladi

-To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni tuzish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

-tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyat sohasiga tegishli mahsulotlar;

-birjalar orqali sotib olish;

-summasi 300 AQSh dollari ekvivalentligidan oshmaydigan mahsulotlar sotib olish;

-madaniyat yutuqlarini olish;

-sotish uchun imtiyozli huquqi bo'lgan mol etkazib beruvchidan olish;

-shartnomaning boshlang'ich summasining 20%idan oshmaydigan qo'shimcha kelishuvlar uchun;

-davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar va xizmatlar;

-engib bo'lmas kuchlar (tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar, avariya va hokazolar) oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun zarur bo'lgan muayyan tovarlarga tezkor ehtiyoj tug'ilganda (moliya organlari bilan kelishgan holda);

-yakunida tender (konkurs) bo'lmagan deb hisoblanganda (moliya organlari bilan kelishgan holda).

Tenderni tashkil etish tuzilmasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Buyurtmachi xarid uchun tender o'tkazishga qaror beradi, mahsulotning maksimal qiymatini aniqlaydi, tender o'tkazish muddatini aniqlaydi, tender komissiyasini tuzadi, tender komissiyasi ishida ishtirok etadi, ishchi organ ishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ishchi organ (ishchi organ funksiyasini buyurtmachi yoki maxsus organ bajaradi):

- savdo va rasmiylashtirish tartibini belgilash;
- tender hujjatlarini ishlab chiqishni tashkil etish;
- ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yoki taklifnoma jo'natish;
- jalb qilinadigan ekspert va maslahatchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- da'vogarlarini tender hujjatlari bilan tanishtirish;
- arizalarni qabul qilish, ularning hisobini yuritish, saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Tender komissiyasi:

- tender komissiyasi ish tartibi (reglamenti)ni belgilash;
- dastlabki kvalifikatsiyadan o'tkazish;
- tender takliflarini ochish va baholash;
- g'olibni aniqlashni amalga oshiradi.

Bundan so'ng buyurtmachi:

- g'olib bilan shartnoma tuzadi;
- buyurtmachiga xizmat ko'rsatuvchi bankka shartnoma majburiyatlarini bajarilishi monitoringgi bo'yicha axborot taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.07.2003 yildagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" №302-sonli Qarori⁸da:

Davlat byudjeti, davlat boshqaruvi organlari va davlat korxonalari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, mahsulotlar sotib olish, asbob-uskunalarni olish, qurilish, kengaytirish, rekonstruktsiya, korxonani modernizatsiya qilish va qayta qurollantirish, kapital ta'mirlash bilan aloqador, ob'ektni loyiha-qidiruv ishlari ham qo'shilgan holda, barcha ish va xizmatlar kompleksi xaridini tartibga soladi.

Kapital qurilishda xaridni amalga oshirishning asosiy tartibi:

⁸ O'zbekiston Respublikasi Qonun Hujjatlari To'plami, 2003 y., 13-son, 105-modda

- konkurs savdolari (bir bosqichli, ikki bosqichli, dastlabki malaka bilan, dastlabki malakasiz). Bular ham o'z navbatida ochiq va yopiq tarzda bo'ladi.

- erkin savdoda xaridni amalga oshirish;

- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish.

Mazkur Qarorga ko'ra erkin savdoda xaridni amalga oshirishda xarid predmeti qiymati 50.000 AQSh dollari ekvivalentligidan kam bo'ladi.

Konkurs savdolari minimal summa 50.000 AQSh dollari ekvivalentligida bo'lganda amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni tuzish Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Erkin savdoda xarid da'vogarlarining takliflarini o'rganish, xarid qilinadigan mahsulot, ish va xizmat miqdori, bajarish muddati va mahsulot etkazish punkti, mol etkazib beruvchilar va pudratchilar tomonidan e'lon qilingan baho va tavsifnomani taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Erkin savdoda xaridni amalga oshirishda mol etkazib beruvchilar va pudratchilarni tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tarkibida kamida 5ta layoqatli mutaxassis bo'lgan baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2011 yildagi № PP-1475 sonli Qarori qabul qilindi.

Qarorning maqsadi:

-davlat byudjeti resurslaridan samarali foydalanish;

-davlat xaridlari jarayoniga kichik biznes sub'ektlarini faol va ko'lamli qatnashishiga qulay sharoit yaratish;

-davlat xaridlari jarayonini optimallashtirish;

-raqobatni rivojlantirish;

-davlat xaridini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash.

Shuningdek, qarorda quyidagilar aks etgan:

-davlat xaridlari bo'yicha maxsus organ – Hukumat komissiyasi faoliyati;

-davlat xaridlari bo'yicha tenderlarda kichik biznes sub'ektlariga preferentsiyalar;

-maxsus axborot portalida e'lonlarni joylashtirish;

-ayrim mahsulotlarni elektron savdolar orqali amalga oshirish;

-davlat ehtiyojlari uchun asosan kichik biznes sub'ektlaridan sotib olinadigan mahsulot, ish va xizmatlar guruhi,

-kichik biznes sub'ektlari mahsulotlarini oshirish bo'yicha Markaz tashkil etish;

-davlat xaridlari bo'yicha tender o'tkazish ustidan nazorat xizmatini tuzish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2011 yildagi № PP-1475 sonli Qarorida:

Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi:

-byudjet va boshqa markazlashgan resurslardan maqsadli va oqilona foydalanilishi ustidan nazorat qiladi;

- davlat xaridlari sohasida qonunchilikka rioya etilishini kuzatib boradi;

- davlat xaridlarining samarali amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib boradi;

- davlat xaridlari tizimini takomillashtirib borish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qiladi;

- kichik biznes sub'ektlari vakillarini davlat xaridlariga jalb qilish bo'yicha qulay sharoit yaratishga ko'maklashadi.

Shuningdek, mazkur Qaror asosida kichik biznes sub'ektlariga quyidagi qulayliklar yaratildi:

-davlat xaridlari bo'yicha tender savdolari o'tkazilganda barcha shartlar teng bo'lganda kichik biznes sub'ektlariga yon bosish;

-qiymati 500 mln.so'mgacha bo'lgan markazlashtirilgan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qurilish va rekonstruktsiya ishlariga pudratchi tashkilotlarni faqat kichik biznes sub'ektlari vakillaridan tanlab olishni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2011 yildagi № PP-1475 sonli Qarorida ishchi organning vazifalari:

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini tuzish va yangilab borish;
- davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi qarorlari loyihasini tayyorlash;
- davlat xaridlari jarayonini monitoring va tahlil qilish, kichik biznes sub'ektlari uchun ajratiladigan kvotalarni amalga oshirish;
- davlat xaridlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar loyihasini ishlab chiqishda ishtirok va qonunchilikka o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar berish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.04.2011 yildagi №100- sonli Qarorida quyidagilar ifodalangan:

Hukumat komissiyasi ishchi organining davlat xaridlari bo'yicha faoliyati, uning asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlari;

300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha bo'lgan mahsulotlarning ba'zi guruhlarini elektron auksion savdolari orqali sotib olish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2013 yilgi №166-sonli "Davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida qabul qilingan Nizomda Davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliyalar sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi ishchi organining asosiy vazifalari, funksiyalari va uning ishini tashkil etish tartibi belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron xaridlarni auksion savdolar shaklida tashkil etish va o'tkazish tartibini belgiladi.

Garchi "Davlat xaridlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni hanuz qabul qilinmagan bo'lsada, respublikamizda davlat xaridlarini amalga oshirish borasida talab darajasida huquqiy asos shakllantirilgan.

Davlat xaridiga oid barcha qonunosti hujjatlarini unifikatsiyalash va takomillashtirish hamda "Davlat xaridlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Hozirda mazkur qonunni mutaxassislar va xalqaro maslahatchilar bilan faol muhokama qilgan holda ishlab chiqish jarayoni ketmoqda.

“Davlat xaridlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining qonuni 4 ta bob va 34 ta moddadan iborat bo’lishi rejalashtirilgan. Qonun loyihasining 1-bobida umumiy qoidalar, 2-bobida davlat xaridlari turlari va bosqichlari, 3-bobida davlat xaridlari jamlanmasi, shikoyat qilish tartibi, monitoring va javobgarlik, 4-bobida yakunlovchi qoidalar keltirilishi ko’zda tutilgan.

Albatta, ushbu qonunda zamon talabidan kelib chiqqan holda, davlat xaridlari borasida amaliyotda uchrab turgan muammolarning (masalan, ayrim mol etkazib beruvchilar tomonidan belgilangan vaqtda va sifatda mahsulotlarning etkazilmayotganligi va h.k.) echimiga qaratilgan moddalarning bo’lishi maqsadga muvofiq bo’lar edi.

1.3. Davlat xaridlari uchun tenderlarni tashkil etish va baholashda xorijiy davlatlar tajribasi

O’zbekistonda shakllantirilayotgan davlat xaridi mexanizmi, bu sobiq ittifoq davrida mavjud “davlat xaridi” tushunchasidan farq qiladi. Shu sababli davlat xaridini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etishda, uni tashkil etish buyicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu sohada AQSh, Evropa Ittifoqi, Xalqaro moliya tashkilotlari va boshqarivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o’rganish hamda ularning ijobiy tajribalaridan mamlakatimiz davlat xaridi tizimini shakllantirishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning ko’plab mamlakatlari qatorida O’zbekiston Respublikasida ham davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasini isloh qilishga, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirishga katta e’tibor berilmoqda. Byudjet mablag’lari hisobidan davlat va mahalliy organlar xaridini tashkil qilish amaldagi qonunchilik, davlat xaridini tartibga soluvchi organlar faoliyatining samaradorligi hamda xaridni amalga oshiruvchi xodimlarning kasbiy malaka darajasi kabi omillarga bevosita bog’liqdir.

Davlat xaridi bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni davlat mablag'lari hisobiga sotib olishdir. Davlat xaridining muhim jixati shundaki, davlat tovar va xizmatlarni yuqori sifat, etarlicha hajm va maqbul narxlardagi ta'minotini amalga oshiradi. Davlat o'z vazifa va funktsiyalarini bajarishi jarayonida bir qator xarajatlarni amalga oshiradi. Bu xarajatlar davlat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun, aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Davlat xaridini tashkil etishda xorij tajribasi, xususan, AQSh, Avstraliya, Germaniya, Frantsiya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda ularning samarali tajribalarini mamlakatimizda olib borilayotgan davlat xaridi tizimidagi boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridini rejalashtirish jarayoni tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni aks ettiruvchi potentsial amalga oshiruvchilar bilan bog'liqdir. Xorijda davlat xaridi aholining ish bilan bandligida muhim rol o'ynaydi⁹.

Milliy iqtisodiyotda hamda yuqori rivojlangan tizimda davlat xaridining harakati nafaqat davlat resurslarini saqlashda va bozor iqtisodiyotidagi chetga chiqishlarni oldini olishda, balki xalqaro savdo tizimini rag'batlantirishda ham muhim omil bo'lib hisoblanadi.

G'arbiy Evropa va Amerika mamlakatlarida davlat jamiyat ehtiyojlaridan alohida bo'lib, xususiy talabni anglatuvchi alohida iqtisodiy sub'ekt sifatida qaralmaydi. Xaridlar faqatgina davlat uchun emas balki, butun jamiyat uchun davlat va davlat institutlari manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash maqsadida zarurdir. Natijada "jamiyat xaridi" shakllanadi.

Janubiy Koreya davlat xaridining markazlashgan tizimi sifatida ko'proq muvaffaqiyatli misol bo'la oladi. Janubiy Koreyada davlat tashkilotlari va xizmat ko'rsatish soxasi davlat buyurtmasi asosida qurilish soxasi taklifini o'z ichiga olgan holda tovar va xizmatlarni xarid qilishi zarur. Janubiy Koreyada, shuningdek

⁹ Mejdunarodniy opit gosudarstvennix zakupok, sbornik statya, Ekonomika, 26 str. 2014 g.

O'zbekistonda ham, davlat xaridining yagona markazlashgan tizimini yaratish maqsadi hukumat xaridi transparentligini va ochiq – oshkoralikni ta'minlash borasidagi umumiy ishonchni qo'lga kiritish, shuningdek, xarid jarayonining samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi.

Evropa mamlakatlari qatorida Frantsiyada davlat xaridini to'g'ri olib borishdagi javobgarlik jiddiy jarima sanksiyalarini o'z ichiga olgan tadbirkorlar faolitada ko'zga tashlanadi. Shveysariyada kantonol¹⁰ xaridlar, ya'ni, ichki kantonol va mahalliy qonunchilik Shveysariya, shuningdek boshqa mamlakatlarning ta'minotchilar bozorini to'g'ri yo'naltirish, diskriminatsiyani cheklash tarzidagi davlat xaridi yagona shved metodi asosida amalga oshiriladi. Germaniyada davlat xaridini tashkil etish markazlashmagan tarzda shakllantirilgan. Federal, hududiy va milliy hokimiyat organlari, shuningdek jamiyat manfaatlari uchun faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari, mavjud qonunchilik asosida va o'z majburiyatlarini inobatga olgan holda buyurtmalarni joylashtiradilar. Davlat buyurtmalari Evropa Ittifoqining tegishli yo'riqnomalari asosida joylashtiriladi, shuningdek, buyurtmachi faoliyati ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqishda turli hildagi tartibdan foydalaniladi. Davlat xaridi tizimini takomillashtirish Federal iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Xorij tajribasiga ko'ra davlat ta'minoti quyidagi maqsadlarga qaratiladi.

- ✓ Xizmatlarga bo'lgan talabni qondirishda ta'minotni kaqolatlash;
- ✓ Maxsulotlarni standartlashtirish asosida ko'chirmachilik va yo'qotishlarni kamaytirish;
- ✓ Sotib olingan tovar va xizmatlarning sifat standartlarini oshirish va qo'llab – quvvatlash;
- ✓ Rivojlangan texnologiya va xarid metodlarini amalda ko'llash orqali yuqori tejamkorlikka erishish;
- ✓ Yuqori samaradorlikka ega ta'minot tizimini shakllantirish.

Rivojlangan mamlakatlar singari bizning mamlakatimizda ham davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga

¹⁰ Kanton – Shveysariya tarkibiga kiradigan har bir ayrim o'lka.

ega. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun esa tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur bo'ladi. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun uning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhim masaladir. Bundan tashqari, uning yordamida kichik biznesni, sanoatning innovatsion sohalarini rivojlanishini rag'batlantirish mumkin.

Davlat xaridini boshqarishning xorijiy tajribasi, xususan, AQSh, Evropa Ittifoqi, Germaniya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda ularning ijobiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, ko'plab mutaxassislarning fikricha, davlat xaridini elektron tarzda tashkil etish bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganish, EIning boshqa mamlakatlari tajribasiga nisbatan ancha qiziqarlidir. Germaniya EIning a'zosi sifatida, davlat xaridi sohasidagi evropa qonunchiligiga so'zsiz amal qilishi belgilab quyilgan. Aks holda, Evropa Komissiyasi tomonidan ma'muriy choralar qo'llanilishi yoki Evropa sudida jazoga tortilishi mumkin. Germaniya o'zining milliy qonunchiligini EIning davlat xaridi bo'yicha qonunchiligiga ancha muvoffaqiyatli tarzda moslashtirib olgan. Chunki, raqobat muhitini shakllantirish va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, davlat mablag'laridan oqilona foydalanishga olib keladi.

Germaniyada davlat xaridini mavjud nazorat tizimi, EI talablariga javob beradi, va shuning bilan birga ayrim o'ziga xoslikka ega. Uning nazorat doirasiga, EI tomonidan aniqlik kiritilgan va davlat buyurtmachisiga tenglashtirilgan barcha tashkilotlar kiradilar. Shunday qilib, bir qator xususiy sektor vakillari davlat buyurtmachisi maqomiga tenglashtirilgan.

Nazorat tizimi ikkita: apellyatsiya (mustaqil tashkilot ko'rinishida) va sud (sud organi ko'rinishida) instantsiyani o'zi ichiga oladi. Davlat xaridini joylashtirish bo'yicha qilingan qarorlarni sudda ko'rib chiqish imkoniyati, bu

sohadagi muvoffaqiyatli yangiliklardan hisoblanadi. Qonunchilikka binoan, bu ikki instantsiya buyurtmachi ustidan shikoyatni tezlashtirilgan tarzda ko'rib chiqadilar va investitsiya jarayonlarini sekinlashuviga jiddiy salbiy ta'sir etmaydi.

Germaniyada davlat xaridini tashkil etish markazlashmagan tarzda tashkil etilgan¹¹. Federal, hududiy va milliy hokimiyat organlari, shuningdek, jamiyat manfaatlari uchun faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari, mavjud qonunchilik asosida va o'z majburiyatlarini inobatga olgan holda buyurtmalarni joylashtiradilar. Bu erda hamon, davlat buyurtmalarini joylashtirishning ajratilgan tizimi amal qiladi: EIning mos keluvchi deriktivalari asosida yuqori va pastki o'lchovlar (pul ko'rinishida) mavjud. Shuningdek, buyurtmachi faoliyati ustidan tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqishda turli xildagi tartibdan foydalaniladi.

Davlat xaridi tizimni takomillashtirish ishlari Federal Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridi jarayoni ishtirokchilari o'rtasida fikrlarning doimiy va mahsuldor almashinuvini yo'lga qo'yilgan bo'lib, mavjud me'yoriy aktlarni tushunish, unga tuzatishlar kiritish va yangi takliflar ishlab chiqish domiy tarzda malga oshiriladi.

Bundan tashqari, Germaniyada ekspertlar va olimlardan tashkil topgan "Davlat buyurtmasi Forumi" jamoat tashkiloti faoliyat yuritadi va ushbu forum doirasida doimiy fikrlar almashinuvi, mamlakat ichkarisida va tashqarisida davlat xaridi sohasida yuzaga kelayotgan yangi ko'rinishlarga munosabat shakllantriladi.

Shuningdek, forum har yili davlat xaridi bo'yicha eng yaxshi ilmiy ish uchun mukofot taqdim etadi. Buyurtmachilarni qonunni "ijodiy" tarzda tushunishi va qonun doirasidan tashqaridagi faoliyat bilan shug'ullanishlari, yoki ayrim potentsial pudratchilarni buyurtmachi xodimlarini "sotib olishi" (korruptsiya) bilan g'irrom raqobat usullaridan foydalanishi, Germaniyada juda kam uchraydigan holat.

Shu sababli, davlat tashkilotlarida davlat buyurtmasini joylashtirish bilan shug'ullanish uchun mustaqil shaxslarni (ushbu shaxslarni ishdan bo'shatish

¹¹ U.Burxanov. Gosudarstvennie zakupki. http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf

imkoniyati yo'qligidan) tayinlash amaliyoti mavjud. Bu shaxslarning faoliyati yuqori turuvchi nazorat organi Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Shunday qilib, Germaniya davlat xaridi tizimi ancha ilg'or tajribaga ega, shuning bilan bir vaqtda, tizimda mavjud ayrim kamchilik qarshi kurashish va muammolar echimini topish bo'yicha davlat hamda jamoat hamkorligi yo'lga qo'yilmoqda. Evropa hududida ichki integratsiya jarayonlarining kuchayib borishi bilan, davlat xaridini boshqarish mexanizmlari tobora unifikatsiyalashib bormoqda va bu evropa hududida ushbu tizimni tartibga soluvchi yagona qonunga bo'lgan talabni yanada kuchaytirmoqda.

I-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda respublikamizda davlat xaridlari tizimini tartibga soluvchi qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bu tizimga tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etishning yanada rag'batlantiruvchi mexanizmini yaratish, ularning bu sohadagi bilimlarini oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, kelgusida davlat xaridlari tartib-qoidalarini yanada takomillashtirish, tovar va xizmatlarni etkazib beruvchilarni tanlashda yangi usullardan kengroq foydalanish, etkazib beruvchilar hamda buyurtmachilar huquqlarini himoya qilish jarayonini soddalashtirish, bu sohada yagona huquqiy yondashuvlarni tatbiq etish, internetdagi xarid.uz portalini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur sohada AQSh, Germaniya, Evropa Ittifoqi, Xalqaro moliya tashkilotlari va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda ularning ijobiy tajribalaridan mamlakatimiz davlat xaridi tizimini shakllantirishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

II-BOB: DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Davlat xaridini amalga oshirishda byudjet tashkilotlari va kichik biznes sub'ektlari faoliyati tahlili

Ma'lumki, iqtisodiyotimizni rivojlantirish sharoitida tender savdolarini amalga oshirish chora tadbirlari kundan kunga muhim ro'l o'ynomoqda. Tender savdolari - dunyo amaliyotida tovarlar, ishlar va hizmatlarni harid etishning asosiy instrumenti sifatida qaraladi. tenderlar orqali tovarlar va hizmatlarni harid etish usullari xar bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha me'yorlari va boshqa majburiy, tavsiya etiladigan hujjatlar bilan begilab beriladi.

Prezidentimiz I.A Karimov takidlaganidek” Bugungi kunga kelib elektron savdo orqali amalga oshiriladigan Davlat xaridlariga 10 528 ta maxsulot etkazib beruvchi jalb etildi va ularning 8 745 tasi, ya'ni 83,1 foizi kichik biznes sub'ektlari vakillarini tashkil etdi.hamda 2014 yil yanvar-mart davrida elektron savdolari natijalari bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning eng katta ulushi ya'ni 44,7 foizi oziq-ovqat maxsulotlari xaridiga, 20,3 foizi Tovar moddiy zahiralarni xarid qilishga, 12 foizi kompyuter va texnika jixozlari xaridiga, 6,7 foizi transport vositalarning joriy ta`mirlashga va 11 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridiga to'g'ri kelmoqda.2013-yilda Davlat xaridlari bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berish uchun elektron savdolarda ishtrok etgan kichik biznes sub'ektlarining ulushi o'rtacha 92,7 foizini tashkil etdi.2014-yida esa 95,4 foizini tashkil etgan.”¹²Tender savdosidan ko'zlangan asosiy maqsad, tovarlar va hizmatlarni past baholarda va optimal sifat

¹²Karimov I.A. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi” 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz.

ko'rsatkichlari asosida sotib olishdan iborat. Savdolar ishtirokchilarga ko'ra (ochiq, yopiq va boshqalar), ishtirok etishga ruhsat berilishiga ko'ra (kvalifikasion tanlov asosida yoki ushbusiz), geografik belgilariga ko'ra (halqaro, milliy, mahalliy), tanlab olish jarayoniga ko'ra (oddiy, soddalashtirilgan) va boshqalar. Shuningdek, savdolarning klassifikasiyasining yana bir turi bu - uning predmetiga qarab, masalan, tovarlar etkazib berish uchun, bajariladigan ishlar va xizmatlar ko'rsatish uchun kabi turilarga bo'linadi. Tovarlarni etkazib berish uchun savdolar -davlat va hususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini harid etishda ishlatiladi. "Quyidagi jadvalda byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va kichik biznes sub'ektlari tomonidan etkazib berilayotgan tovar (ish, xizmat)lar (guruxlar bo'yicha) 2014 yil yanvar-mart oylardagi holati berilgan".

1-jadval

Byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va kichik biznes sub'ektlari tomonidan etkazib berilayotgan tovar (ish, xizmat)lar (guruxlar bo'yicha) 2014 yil yanvar-mart holati¹³

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	Bitimlar soni	Bitimlar summasi (mln.so'm)	Ulush, %	Iqtisod qilingan mablag (mln. so'm)
Jami tuzilgan bitimlar; shu jumladan	42 651	66 036,7	100	17 980,7
Kiyim- kechak, poyabzal va choyshab-giloflar xaridi	292	609,8	0,9	818,7
Mebel va ofis jixozlari xaridi	560	2 092,5	3,2	1 097,0
Kompyuter va texnika jixozlari xaridi	1 902	7 940,8	12,0	1 612,0
Qogoz xarid qilish va boshqa poligrafiya maxsulotlari	432	825,6	1,3	141,2
Boshqa tovar moddiy boyliklar xaridi va xizmatlari	3 923	13 436,5	20,3	4 408,6
Oziq-ovqat maxsulotlari xaridi	32 764	29 488,5	44,7	7 042,4
Bino va transport vositalari joriy ta'miri	1 195	4 409,1	6,7	877,7
Boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)	1 583	7 233,8	11,0	1 983,1

¹³ <http://www.uzex.xarid.uz>

Yuqoridagi jadvalga ko'ra elektron savdolari natijalari bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning eng katta ulushi ya'ni 44,7 foizi oziq-ovqat maxsulotlari xaridiga, 20,3 foizi Tovar moddiy zahiralarni xarid qilishga, 12 foizi kompyuter va texnika jixozlari xaridiga, 6,7 foizi transport vositalarning joriy ta'mirlashga va 11 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridiga to'g'ri kelgan.

Bajariladigan ishlar uchun savdolar - pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash hamda kerakli hizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida ob'ektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatatsiya hizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat. Savdo ishtirokchilari - buyurtmachi va pudratchilardan iborat. Tender komissiyasi tovar etkazib berish qiymati 1,0 mln AQSH dollariga teng miqdordan oshmaydigan bitta shartnoma bo'yicha amalga oshirilganda harid qiluvchi tashkilot ("buyurtmachi" deb ataladi) tomonidan tuziladi.

2-jadval

Byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va kichik biznes sub'ektlari tomonidan yetkazib berilayotgan tovar (ish, xizmat)larning o'rtacha narxi jadvali (ming so'm)¹⁴.

	2013 yil			2014yil		
	Yavnar	Fevral	Mart	Yavnar	Fevral	Mart
Bitimlarning o'rtacha narxi	961,7	990,1	1 150,7	1 667,7	1 607,7	1 418,1

Jadvaldan ko'rinib turibdiki yillar bo'yicha o'sish tendensiyasi inflyatsiyani hisobga olganda ham sezilarli darajada deb ayta olamiz. Endi esa 2013-yilda amalga oshirilgan davlat xaridlari tarkibini tahlil qilamiz.

¹⁴ <http://www.uzex.xarid.uz>

Tovar etkazib berish qiymati 1,0 mln AQSH dollariga teng miqdordan oshadigan bitta shartnoma bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda tender komissiyasi buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda tuziladi. Tarmoq vazirliklari va idoralari rozi bo'lgan taqdirda ularning viloyat, tuman, shaxar bo'limlari, O'zR Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qaroriga ilova qilingan "Hom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar harid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida"gi nizomi talablariga rioya qilgan holda, tender o'tkazish bo'yicha buyurtmachilar bo'lishi mumkin. Umuman olganda tender savdolari iqtisodiyotimizda o'rni beqiyasdir, tovar va xizmatlarni xarid qilish orqali qurilish sohalari hamda aholining turmush farovonligini oshirishga imkon yaratadi.

So'ngi yillarda davlat xaridlari tarkibida bir qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda va bu bevosita zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan talabning oshib borishi va yana bir qancha omillar bilan o'zaro bog'liqdir. Bu bog'liqliklarni o'tgan yillardagi davlat xaridlari ijrosi, xususan, 2013-yil ma'lumotlari asosida tahlil qilishga harakat qilib ko'ramiz.

Birinchi navbatda, hozirgi kunga kelib davlat xaridlari tarkibi qanday ko'rinishda ekanligini ko'rib chiqamiz. 2013-yilda davlat xaridlari quyidagicha tarkib topgan:

Kiyim- kechak, poyabzal va choyshab-g'illoflar xaridi;

Mebel va ofis jihozlari xaridi;

Kompyuter va texnika jihozlari xaridi;

Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika saqlash va joriy ta'mirlash xarajatlari;

Qog'oz xarid qilish va boshqa poligrafiya mahsulotlari;

Boshqa tovar moddiy boyliklar xaridi va xizmatlari;

Oziq-ovqat mahsulotlari xaridi;

Bino va transport vositalari joriy ta'miri;

Boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)¹⁵.

Ko'rib turganimizdek, davlat xaridlari tarkibidagi har bir bo'limning o'ziga yarasha tutgan o'rni va vazifalari bor.

Ularning qaysidir birining kamayishi hisobiga boshqa birining hajmi o'sib borishi mumkin emas. Ammo, yillar bo'yicha solishtirib qaralsa, kompyuter va texnika jihozlari xaridi, kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika saqlash va joriy ta'mirlash xarajatlarining davlat xaridlarida tutgan ulushi jihatidan o'sib borish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bunday holatda boshqa xaridlar hisobidan ushbu xaridlar amalga oshirilishiga to'g'ri keladi deyish noto'g'ridir. Aksincha, mavjud talablar asosida ushbu tendensiyalar o'zgarishi davlat tomonidan tegishli tartibda moliyalashtirilib boriladi. Buni biz 2013 va 2014-yillarning 1-choragida amalga oshirilgan davlat xaridlari misolida ko'rib chiqish imkoniyatiga egamiz.

3-jadval

2013-yilda byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan va kichik biznes sub'ektlari tomonidan yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar jadvali¹⁶

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	Bitimlar soni	Bitimlar summasi (mln. so'm)	Ulush, %	Iqtisod qilingan mablag' (mln. so'm)
Jami tuzilgan bitimlar; shu jumladan	249 793	416 807,7	100	83 013,6
Kiyim- kechak, poyabzal va choyshab-g'illoflar xaridi	5 710	10 717,0	2,6	5 724,0
Mebel va ofis jihozlari xaridi	9 612	32 018,6	7,7	9 070,7
Kompyuter va texnika jihozlari xaridi	13 759	50 264,2	12,1	7 671,2
Kompyuter jihozlari, xisoblash va audio-video texnika saqlash va joriy ta'mirlash xarajatlari	409	1 189,8	0,3	282,0
Qog'oz xarid qilish va boshqa poligrafiya maxsulotlari	2 441	8 125,9	1,9	1 055,1
Boshqa tovar moddiy boyliklar xaridi va xizmatlari	26 631	66 004,2	15,8	12 772,1
Oziq-ovqat maxsulotlari xaridi	166 513	124 197,8	29,8	25 447,4

¹⁵ <http://www.uzex.xarid.uz>

¹⁶ <http://www.uzex.xarid.uz>

Bino va transport vositalari joriy ta'miri	12 291	71 506,6	17,1	12 684,5
Boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar)	12 427	52 783,6	12,7	8 306,6

2013-yilda amalga oshirilgan davlat xaridlarining tarkibini tahlili shuni ko'rsatadiki 2013-yil yanvar-dekabr davrida elektron savdolari natijalari bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning eng katta ulushi, ya'ni 29,8 foizi oziq-ovqat mahsulotlari xaridiga, 17,1 foizi bino va transport vositalari joriy ta'miriga, 12,1 foizi kompyuter va texnika jihozlari xaridiga, 7,7 foizi mebel va ofis jihozlari xaridiga va 12,7 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridiga to'g'ri kelmoqda. Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari tarkibi hozirgi sharoitda davlat uchun muhim bo'lgan tashkilotlarni ta'minlashga qaratilganligini kuzatish qiyin emas va davlat xaridlari tarkibining o'zgarishi, uning takomillashuvi har tomonlama puxta o'ylangan rejalar asosida amalga oshirilmoqda desak hech xato qilmagan bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda, davlat xaridlarining tarkibini yanada takomillashtirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar ulushini yanada oshirish va xarajatlarni tejash maqsadida kichik biznes sub'ektlari tomonidan yetkazib beriladigan tovar (ish, xizmat)lar ulushini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy – siyosiy islohatlar bugungi kunda iqtisodiyotimizning yanada yuqori va barqaror sur'atlarda o'sish imkoniyatlarini yaratmoqda. Mamlakatimizda davlat xaridlarini tashkil etish borasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining yanada kengaytirilayotganligi, puxta o'ylangan davlat dasturi buning sababchisi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Davlat xaridlarini tashkil etilishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining imkoniyatlari erkinlashtirilayotgaligi, erkin raqobat muhitini shakllantirishda, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni xorijir mamlakatlarga eksport qilish qobiliyatini yanada kengaytirmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yil 7 fevralda qabul qilingan “Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida”gi qarori va uni amaliyotga tatbiq qilish orqali kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga keng yo'llar ochib berildi. Bu esa, iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishida, yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sish sur'atini ta'minlashga, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishga va turmush farovonligini yanada yaxshilashga keng imkoniyat yaratadi. Shu o'rinda, 2000-yil bilan taqqoslaganda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31 foizdan 54 foizgacha ko'paydi, ushbu sohada mehnat bilan band bo'lganlar soni shu davr ichida 2 barobardan ko'proq oshdi va iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat bilan band bo'lganlarning 75,1 foizdan ko'prog'i uning ulushiga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizi, sanoat mahsulotining 91 foizi va qishloq xo'jaligining deyarli barcha mahsuloti nodavlat sektorda ishlab chiqarilmoqda¹⁷.

Shu bilan birga kichik biznes subyektlarining tovar (ish, xizmat) yetkazib berish uchun davlat buyurtmalarini olish huquqi kengaytirildi, halol raqobat muhitiga imkoniyatlar yaratildi hamda biznes subyektlari bilan davlat xaridlarining amalga oshirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining yanada kengayishiga imkon yaratadi.

Kichik biznes subyektlarining davlat buyurtmalarini qabul qilishi, tovar (ish, xizmat)larning sifatini yanada yaxshilanishi shu bilan bir qatorda yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish imkonini beradi. Shu o'rinda tadbirkorlarga yana bir qulaylik yaratilganligini aytib o'tishimiz mumkin. Davlat xaridlarini tashkil etilishida 2011 yilda birjada savdo ishtirokchilarining yuqori darajadagi raqobatini va teng ishtirokini ta'minlaydigan Respublika tovar-xomashyo birjasi va uning hududiy bo'limlari orqali tashkillashtiriladigan alohida tovar (ish, xizmat) turlariga davlat xaridlarini elektron portal orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Elektron savdolar Respublika tovar-xomashyo birjasi, uning tumanlardagi brokerlik kontoralari va savdo maydonchalarida tizimli tarzda tashkil etilmoqda. Savdolarning kichik

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" nomli ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz

biznes subyektlari va budjet mablag'laridan xarid qiluvchilarga birdek qulay tarzda o'tkazilishi doimiy e'tiborda. Bu esa, kichik biznes subyektlariga davlat xaridlarini elektron portal orqali amalga oshirish, turli shartnomalar imzolash, elektron savdolarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni, bankdagi hisobraqamlari va plastik kartochkalardan foydalangan holda amalga oshirish imkonini bermoqda.

2013 yilda elektron savdolardagi davlat xaridlari jami 417 milliard so'mni tashkil etadi va savdo yakunlari bo'yicha 83 milliard so'mlik budjet mablag'lari tejab qolindi. Bunda davlat xaridlari doirasida sotuvga qo'yilgan tovar va xizmatlarning 83 foizdan ziyodi kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilganini alohida qayd etish kerak. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelayotganligi¹⁸ quvonarli hol albatta.

-Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohatlar aholi daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratishga keng imkoniyatlar yaratadi.

-Davlat xaridlarining amalga oshirilishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarini qo'llab – quvvatlash, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, va ularga keng yo'llar ochib berilishi iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishiga, uning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

-Mamlakatning yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, bozor iqtisodiyotini rivojlanganlik darajasini oshirish, biznes subyektlarining eksport salohiyatini yanada yaxshilash bugungi kunda muhim o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etishga katta etibor

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" nomli ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz

qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, xaridning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi:

Ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;

Sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etish mumkin;

Kichik biznes vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin.

Davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mablag'larini samarali boshqarish, shuningdek, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini ushbu sohaga kengroq jalb etish kabi qator maqsadlarni ko'zlaydi.

Davlat va mahalliy organlar xaridining samarasi amaldagi qonunchilik, davlat xaridini tartibga soluvchi organlar faoliyatining samarasi hamda xaridni amalga oshiruvchi hodimlarning professionallik darajasi kabi omillarga bevosit bog'liq.

Kichik biznes subyektlarini davlat xaridi orqali qo'llab-quvvatlash, davlat xaridlari tizimini optimallashtirish, ularda kichik biznes subyektlarining faol ishtirokini ta'minlashda Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yil 7 fevralda qabul qilingan "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida 2011-yilning 1 apreldan boshlab davlat xaridlarini amalga oshirishda kichik biznes subyektlariga ulushlar (kvotalar) ajratish orqali ularning tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish uchun davlat buyurtmalarini qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish choralari ko'rilmoqda. Kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kvotalarni o'z ichiga oluvchi davlat xaridlarini amalga oshirish uchun yangi, takomillashtirilgan mexanizmdan foydalanilmoqda.

Respublika tovar-xomashyo birjasida tashkil etiladigan elektron savdolarida davlat xaridlari bo'yicha tovarlar ro'yxatini va kichik biznes subyektlari amalga oshiradigan xaridlar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhiga o'rnatilgan minimal ulushlar miqdorini belgilab beruvchi komissiya tashkil etildi. Bu esa kelajakda mahalliy tovar bozorlarida raqobatning rivojlanishi va davlat xaridlarini amalga oshirishda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning mazkur tarmog'i korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilgan. Ayni paytda elektron savdodan keng foydalanilmoqda. Bunga misol tariqasida 2013- yilda amalga oshirilgan davlat xaridlarida kichik biznesning ulushi o'tgan davrlarga nisbatan ortganini misol qilib keltirishimiz mumkin:

2013 yilning yanvar-dekabr oylarida amalga oshirilgan elektron savdolari bo'yicha jami 416,8 mlrd. so'mlik maxsulot (ish, xizmat)lar etkazib berish bo'yicha 249 793 ta bitimlar tuzilgan.

O'tkazilgan elektron savdolar natijasida byudjet mablag'larining 83,0 mlrd. so'mi iqtisod qilingan va bu savdolar summasiga nisbatan 16,6 foizni tashkil etgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu bitimlarning 231 541 tasi, ya'ni 92,7 foizi kichik biznes sub'ektlari vakillari ishtirokida amalga oshirildi va bu bitimlarning umumiy summasi bo'yicha 388,0 mlrd. so'mni, ya'ni jami elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlarning 93,1 foizini tashkil etdi.

Bugungi kunga kelib elektron savdo orqali amalga oshiriladigan Davlat xaridlariga 10 528 ta maxsulot etkazib beruvchi jalb etildi va ularning 8 745 tasi, ya'ni 83,1 foizi kichik biznes sub'ektlari vakillarini tashkil etdi.

2013 yil yanvar-dekabr oylarida tuzilgan bitimlarning o'rtacha narxi 1668,6 ming so'm tashkil etgan bo'lib, 2012-2013 yillar bo'yicha choraklar kesimida quyidagicha¹⁹:

4-Jadval

2012-2013 yillar bo'yicha choraklar kesimida tuzilgan bitimlarning o'rtacha narxi (ming so'm)²⁰

	2012 yil				2013 yil			
	I chorak	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	II chorak	III chorak	IV chorak
Bitimlarning o'rtacha narxi	714,3	1 045,4	1 736,1	1 918,3	1 855,5	1 091,8	1 452,2	1 459,8
Shu jumladan, kichik biznes sub'ektlari bitimlari bo'yicha	701,9	1 056,6	1 746,3	1 902,7	1 864,4	1 092,4	1 464,7	1 472,4

Yuqoridagilardan tashqari, Xukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kichik biznes sub'ektlari uchun belgilangan kvota (ulush)lar 2013 yilning yanvar-dekabr oylarida rejalashtirilgan 44,2 foiz o'rniga 66,4 foizga yoki 330,0 mlrd. so'm o'rniga 495,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar samarasida

¹⁹ <http://www.uzex.xarid.uz>.

²⁰ <http://www.uzex.xarid.uz>

yurtimiz iqtisodiyoti muttasil o'sishida ularning ulushi sezilarli ravishda oshmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlari davlat xaridi uchun asosiy mahsulotlarning katta qismini yetkazib beradi. Kichik biznes subyektlaridan xarid etiladigan davlat ehtiyojlari uchun buyurtmalarni kengaytirish orqali, innovatsiyalar va raqobatning oshishi, buning natijasida iqtisodiy o'sishga ta'sir etish mumkin. Shuningdek, kichik biznes mahalliy muhitga ijobiy ta'sir etadi. Tenderlarda kichik biznes subyektlarining ishtiroki natijasida ko'proq taklifning tushishi, baholarning pasayishiga hamda tovarlar sifatining yuqori bo'lishi bilan, buyurtmachilarga qisqa va uzoq muddatli foyda keltiradi.

Mamlakatimizda bugungi kunda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratilayotganligini hech birimiz inkor eta olmaymiz.

Albatta, bu e'tibor bejiz emas, zero iqtisodiyotning asosiy tayanchi hisoblangan kichik biznes subyektlarini rivojlantirmasdan turib mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash oson emas. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi iqtisodiyotning ushbu muhim tarmog'ini yanada rivojlantirish, ichki bozorni raqobatbardosh hamda sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo'lganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan ko'plab tadbirkorlik subyektlari minglab turdagi mahsulot ishlab chiqarib, bozorlarimiz to'kinligini ta'minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga samarali hissa qo'shmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar yurtimiz iqtisodiyotini muttasil o'sishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi bor-yo'g'i 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozir ushbu ko'rsatkich 52,5 foizdan oshdi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xomashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini alohida ta'kidladi.

Ushbu vazifani amalga oshirishga oid qonunchilik asosini yaratish, davlat xaridlari tizimini optimallashtirish, ularda kichik biznes subyektlarining faol ishtirokini ta'minlashda Prezidentimiz Islom Karimovning 2011-yil 7-fevralda qabul qilingan "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi qarori dasturilamal bo'lmoqda.

Keyingi yillarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilashga doir qabul qilingan hujjatlarning amalga oshirilishi natijasida joriy yilning I choragida yangidan tashkil etilayotgan kichik biznes subyektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) 7,8 foizga hamda kichik biznes daromadlarining aholi umumiy daromadlaridagi hissasi 44 foizdan 46,3 foizga oshdi.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 2,1 trillion so'm miqdorida yoki 2013-yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar berildi, xalqaro moliya institutlarining 22,1 million dollarlik kredit liniyalari o'zlashtirildi (1,2 barobar ko'p). Birja savdolari orqali kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 270,4 milliard so'mlik (1,8 barobar o'sish) o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar sotildi, bu umumiy birja aylanmasining 13,5 foizini tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 894,5 milliard so'mlik (1,5 barobar o'sish) mahsulot xarid qilindi. Kichik biznes subyektlaridan elektron savdolari orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari hajmi 63 milliard so'mni (elektron savdolar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari umumiy hajmining 95,4 foizini) tashkil etdi. Davlat xaridlari bo'yicha o'z tovar va xizmatlarini yetkazib

berish uchun ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlarining umumiy soni 8754 tani tashkil etdi yoki 2013-yilning shu davriga nisbatan 10,4 foizga o'sdi.

Davla xaridlari bo'yicha elektron savdolarning joriy etilishi hisobiga 17,9 milliard so'mlik yoki 21,4 foiz budjet mablag'lari iqtisod qilindi²¹.

Respublika tovar-xomashyo birjasida tashkil etiladigan elektron savdolarida davlat xaridlari bo'yicha tovarlar ro'yxatini va kichik biznes subyektlari amalga oshiradigan xaridlar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhiga o'rnatilgan minimal ulushlar miqdorini belgilab beruvchi komissiya tashkil etilgan bo'lib, kelajakda mahalliy tovar bozorlarida raqobatning rivojlanishi va davlat xaridlarini amalga oshirishda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytib o'tishimi joizki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi etib tayinlangan.

O'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston Moliya vazirligining O'quv markazida yangidan joriy qilingan davlat xaridlari elektron savdo mexanizmini amalga oshirish bo'yicha budjetdan mablag' oluvchilar va kichik biznes subyektlari uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Unda budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning davlat xaridlariga mas'ul 25 mingdan ziyod xodimi o'z malakasini oshirdi. Bu esa ularga tender savdolarida ishtirok etish va o'tkazish jarayonlari bilan yanada kengroq tanishish imkonini beradi.

Fikrimiz so'ngida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda davlat xaridi tizimini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarini davlat buyurtmalarida ishtirokoni ta'minlash orqali iqtisodiyotimizni rivojlanishiga ijobiy ta'sir eta olamiz. Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini qaror toptirish va har tomonlama mustahkamlash borasida yaratilayotgan bunday shart-sharoitlar sog'lom raqobat rivojiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tobora oshib borayotgan bo'lib, u nafaqat

²¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi
O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. www.uza.uz

bozor tuzilmasining optimallasuvi va aholi bandligining oshishiga ko'maklashmoqda, balki yalpi ichki mahsulotning katta qismini yaratishda ham muhim o'rin egallamoqda. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan 471 mingdan ortiq tadbirkorlik sub'ekti minglab turdagi mahsulot ishlab chiqarib, bozorlarimiz to'kinligini ta'minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga samarali hissa qo'shmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar samarasida yurtimiz iqtisodiyoti muttasil o'sishida ularning ulushi sezilarli ravishda oshmoqda.

Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida ularning davlat xaridlarida faol ishtirokini ta'minlashda Prezidentimiz Islom Karimovning 2011 yil 7 fevralda qabul qilingan "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"²²gi qarori dasturilamal bo'layotir. Kichik biznes sub'ektlariga ajratiladigan kvotalarni o'z ichiga oluvchi davlat xaridlarini amalga oshirish uchun yangi, takomillashtirilgan mexanizmdan foydalanilmoqda. Respublika tovar-xomashyo birjasida tashkil etiladigan elektron savdolarida davlat xaridlari bo'yicha tovarlar ro'yxatini va kichik biznes sub'ektlari amalga oshiradigan xaridlar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhiga o'rnatilgan minimal ulushlar miqdorini belgilab beruvchi komissiya tashkil etildi. Bu esa kelajakda mahalliy tovar bozorlarida raqobatning rivojlanishi va davlat xaridlarini amalga oshirishda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qiymati 500 million so'mgacha bo'lgan ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha davlat budjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalanadigan ishlarni bajarish uchun pudrat tashkilotlari faqat kichik biznes sub'ektlari orasidan tanlab

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli Qarori.

olinmoqda. Bunda ishtirokchilar soni kamida uch kishini tashkil etishi lozim, aks holda tanlov takliflarini saralab olish taqiqlanadi va qayta tanlov e'lon qilinadi.

Tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida Respublika tovar-xomashyo birjasi va uning hududiy bo'limlari orqali tashkillashtiriladigan alohida tovar (ish, xizmat) turlariga davlat xaridlarini elektron portal orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Elektron savdolar Respublika tovar-xomashyo birjasi, uning tumanlardagi brokerlik kontoralari va savdo maydonchalarida tizimli tarzda tashkil etilmoqda. Savdolarning kichik biznes sub'ektlari va budjet mablag'laridan xarid qiluvchilarga birdek qulay tarzda o'tkazilishi doimiy e'tiborda.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda tadbirkorlarga qulaylik yaratishdan kelib chiqib, zamonaviy elektron birja savdolari tizimi joriy etildi. Bunday savdolarni tashkil etish uchun Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali (Davlatxarid.uz, Xarid.uz, Goszakupki.uz) yaratilgan.

Ma'lumki, barcha budjet tashkilotlar davlat xaridlarini markazlashtirilgan manba hisobidan oladi. Shu bois bo'ladigan xaridlar to'g'risidagi e'lon 30 kundan kam bo'lmagan muddatda tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchi aniqlangunga qadar maxsus informatsion portalga kiritilmoqda. Bu esa tadbirkorlik sub'ektlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning narx va sifat jihatdan rag'batlantirmoqda.

Iqtisodiyotning mazkur tarmog'i korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilgan. Ayni paytda elektron savdodan keng foydalanilmoqda. 2014 yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan elektron savdolari bo'yicha jami 66 036,7 mln. so'mlik maxsulot (ish, xizmat)lar etkazib berish bo'yicha 42 651 ta bitimlar tuzilgan bo'lib, shundan 24 877,2 mln. so'mlik 17 543 ta bitimlar 2014 yil mart oyiga to'g'ri kelmoqda. O'tkazilgan elektron savdolar natijasida byudjet mablag'larining 17 980,7 mln. so'mi iqtisod qilingan va bu savdolar summasiga nisbatan 21,4 foizni tashkil etgan bulib, shundan 7 039,5 mln. so'mi yoki 19,8 foizi mart oyiga to'g'ri kelmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu bitimlarning 40 714 tasi, ya'ni 95,5 foizi kichik biznes sub'ektlari vakillari

ishtirokida amalga oshirildi va bu bitimlarning umumiy summasi bo'yicha 63 016,3 mln. so'mni, ya'ni jami elektron savdolar bo'yicha tuzilgan bitimlarning 95,4 foizini tashkil etdi.

Bugungi kunga kelib elektron savdo orqali amalga oshiriladigan Davlat xaridlariga 10 528 ta maxsulot etkazib beruvchi jalb etildi va ularning 8 745 tasi, ya'ni 83,1 foizi kichik biznes sub'ektlari vakillarini tashkil etdi. 2014 yil yanvar-mart oylarida tuzilgan bitimlarning o'rtacha narxi 1 548,3 ming so'm tashkil etgan bo'lib, shu yil bo'yicha chorak kesimida quyidagicha:²³

5-jadval

2013-2014 yil yanvar-mart oylarida tuzilgan bitimlarning o'rtacha narxi²⁴

	2013 yil			2014 yil		
	Yanvar	Fevral	Mart	Yanvar	Fevral	Mart
Bitimlarning o'rtacha narxi	961,7	990,1	1 150,7	1 667,7	1 607,7	1 418,1
Shu jumladan, kichik biznes sub'ektlari bitimlari bo'yicha	995,6	1 000,7	1 144,9	1 686,3	1 606,6	1 405

Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini qaror toptirish va har tomonlama mustahkamlash borasida yaratilayotgan bunday shart-sharoitlar sog'lom raqobat rivojiga xizmat qilmoqda. Bu esa davlat xaridlari tizimida ishtirok etayotgan kichik biznes sub'ektlari daromad olish, faoliyatlarini kengaytirish va o'zlari ishlab chiqargan tovar (ish, xizmatlar) bo'yicha kafolatlangan sotib oluvchilarga ega bo'lmoqda.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli qarorining ijrosi bo'yicha Moliya Vazirligi ma'lumotlari. www.mf.uz

²⁴ <http://www.uzex.xarid.uz>

Davlat xaridlari bozori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqaradigan mahsulotlar uchun talab manbasi hisoblanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish vositasi sifatida faol ishlatiladi. Davlat xaridlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kengroq jalb qilish davlat budjetining daromadlari qismiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, davlat xaridlari tizimida shaffoflik va samaradorlikni oshirish masalalari doimo muhurligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda davlat xaridlari bo'yicha masalalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek yana 45dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda. Shuning bilan bir qatorda ushbu soha qonunchiligini takomillashtirish va tartibga solish masalalarida Parlament tomonidan va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi tomonidan qonunchilik bazasini takomillashtirish va o'z elektorati - ishbilarmon va tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ular bilan doimiy munozara va tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. O'z o'rnida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasini faoliyati ham kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xaridlari tizimida ustivorligini ta'minlash va ularning xuquqiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek bilimi va kompetentsiyalarini oshirishga yo'naltirilgandir.

Uning ishchi organi-G'aznachilik tomonidan davlat xaridlarini samarali amalga oshirilishini doimiy tarzda monitoringini yuritish, uni takomillashtirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali kichik biznes sub'ektlarini davlat xaridlari jarayoniga faol va keng ko'lamda jalb etish borasida qulay shart-sharoitlar yaratib kelmoqda.

2013 yil yanvar-dekabr davrida davlat xaridlari bo'yicha bo'yicha byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larning eng katta ulushi ya'ni 29,8 foizi oziq-ovqat maxsulotlari xaridiga, 17,1 foizi bino va transport vositalari joriy ta'miriga, 12,1 foizi kompyuter va texnika jixozlari xaridiga, 7,7

foizi mebel va ofis jixozlari xaridiga va 12,7 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, keyingi yillarda O'zbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, raqobat va kichik biznes, shunidek xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish izchil sur'atlarda ta'minlanmoqda.

6-jadval

2013-yilda davlat xaridlari bo'yicha budjet muassasalari tomonidan xarid qilingan mahsulotlar tarkibi²⁵:

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	Bitimlar soni	Bitimlar summasi (mln. so'm)	Ulush, %	Iqtisod qilingan mablag (mln. so'm)
Jami tuzilgan bitimlar; shu jumladan	249 793	416 807,7	100	83 013,6
Kiyim- kechak, poabzal va choyshab-giloflar xaridi	5 710	10 717,0	2,6	5 724,0
Mebel va ofis jixozlari xaridi	9 612	32 018,6	7,7	9 070,7
Kompyuter va texnika jixozlari xaridi	13 759	50 264,2	12,1	7 671,2
Kompyuter jixozlari, xisoblash va audio-video texnika saqlash va joriy ta'mirlash xarajatlari	409	1 189,8	0,3	282,0
Qogoz xarid qilish va boshqa poligrafiya maxsulotlari	2 441	8 125,9	1,9	1 055,1
Boshqa tovar moddiy boyliklar xaridi va xizmatlari	26 631	66 004,2	15,8	12 772,1
Oziq-ovqat maxsulotlari xaridi	166 513	124 197,8	29,8	25 447,4

²⁵ Manba: www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi

Bino va transport vositalari joriy ta'miri	12 291	71 506,6	17,1	12 684,5
Boshqa tovarlar	12 427	52 783,6	12,7	8 306,6

2013 yil yanvar dekabr oylarida byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovarlar (ish, xizmatlar) elektron savdolari bo'yicha eng katta ulushni ya'ni 29,8 foizni oziq ovqat mahsulotlari xaridiga, 17,1 foizi bino va transport vositalari joriy ta'miriga, 12,1 foizi kompyuter va texnika jixozlari xaridiga, 7,7 foizi mebel va ofis jixozlari xaridiga va 12,7 foizi boshqa tovar (ish, xizmat)lar xaridiga to'g'ri kelmoqda.²⁶ 1-jadval ma'lumotidan ko'rsak bo'ladiki, 2013 yilda elektron savdolar xisobiga byudjet tashkilotlari tomonidan xarid qilingan tovar(ish, xizmat)lar bo'yicha 83 013,6 mln. so'm iqtisod qilingan.

Elektron savdalarni o'tkazish tartibini ko'radigan bo'lsak, u erda ish va xizmatlar bo'yicha savdolarni amalga oshirish tartibi qisman yoritilgan bo'lib, amaliyotda ish va xizmatlarni xaridi tovarlar xaridini amalga oshirish tartibi kabi amalga oshiriladi. Bu o'ziga yarasha noqulayliklarga ega. Ish va xizmatlar bozori bilan tovarlar bozoridagi o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda qonunchilikka qo'shimalar kiritilishi elektron savdolarni amalga oshirish tartibi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Davlat xaridlarini amalga oshirayotganda elektron savdolardan foydalanish istiqbollari hozirgi kundagi ahborot texnologiyalarining jadal rivojlanish tempiga ega ekanligi bilan belgilanishi mumkin. Bu sohadagi ilg'or texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish o'z samarasini beradi.

Tovarlar (ish, xizmatlar)ni xarid qilish buyicha kichik biznes sub'ektlariga kvotalarni ajratish buyicha kiritilgan mexanizim, ularga davlat buyurtmalarini olishga imkoniyatlarini kengaytirdi, shaffoflikni va davlat xaridlarini amalga oshirishda raqobatni yanada oshirishni ta'minladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tizimini yanada takomilashtirish va konuchilik asosolarini kuchaytirish dolzarbligi kelib chiqmoqda. Jumladan, "Davlat xaridlari tug'risida"gi qonuni loyixasini ishlab chiqish va parlament tomonidan ushbu qonuni qabul qilish masalasi muximligi bilan ajralib turadi.

²⁶ www.mf.uz

Shuning bilan bir qatorda, ushbu jarayonda xalqaro tashkilotlar kumagida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (PROON) va Moliya vazirligining “O‘zbekistonning byudjet tizimini isloh qilish” qo‘shma loyihasi doirasida “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Kontsepsiyasi va qonun loyihasi, shunidek hamkorlikda davlat xaridlarini tartibga soluvchi bir qator qonunosti hujjatlar tayyorlanmoqda.

O‘zbekistonda davlat sektori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda eng katta ahamiyatga ega. U puxta ishlashi uchun esa, davlat sektorini tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlab turish zarur. Davlat xaridlari ayni shu maqsadga xizmat qiladi. Zero jamlanma byudjet xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi bunday xaridlar uning muvozanat saqlashiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuksak samaradorligini ta‘minlash o‘ta muhimdir.

Umuman olganda davlat xaridlari deganda davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni to‘liq yoki qisman davlat byudjeti hisobidan sotib olish tushuniladi. Mazkur xaridlarning ahamiyatli tomoni ular davlat sektorini yuqori sifatli barcha zarur tovarlar bilan kerakli miqdorda va maqbul narxlarda ta‘minlaydi. Davlat xaridlari tizimi, davlat sektoriga zarur tovarlarni yetkazib berish, xizmatlar ko‘rsatish va uning uchun ishlarni bajarish orqali mazkur tizimni samarali ishlashini ta‘minlaydi hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o‘z xissasini qo‘shadi.

Davlat xaridlaridan umuman mamlakat ishlab chiqaruvchilarini, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tezkor rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishning qo‘shimcha vositasi sifatida foydalanish mumkin. Davlat milliy daromadni davlat xaridlari orqali qayta taqsimlayotganda iqtisodiy agentlarni rag‘batlantiradi. Zero, ayni milliy agentlar bu daromadni vujudga keltirgan va iqtisodiyotdagi institutsional rivojlanish lokomotivi vazifasini bajaradi.

Mamlakatimiz Prezidentining «Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va unga kichik biznes sub‘ektlari jalb etilishini kengaytirish to‘g‘risida» 2011 yil 7-

fevraldagi Qarori qabul qilinganidan keyin mazkur sohada jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Davlat xaridlari Yalpi Ichki Mahsulotning 11%ni yoki jamlanma byudjetning uchdan bir qismini tashkil etmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Hukumati davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalariga katta ahamiyat bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1475 sonli Qarori hamda bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, shuningdek davlat xaridlari boyicha hukumat komissiyasi tuzildi. Uning vazifalari doirasiga mazkur sohadagi normativ-huquqiy bazani yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish ham kiradi. Shu munosabat bilan, qonun loyihasini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda muhokama qilish chog'ida jahondagi ilg'or tajriba bilan tanishish, uning bizga mos tomonlarini qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish foydali bo'lar edi.

Har qanday mamlakatda davlat xaridlari tizimi davlat xizmatlari ko'rsatilishi bilan bog'liq. Agar davlat xaridlari tizimi takomillashtirilsa, u holda xarajatlarni ancha kamaytirish, shuningdek davlat xizmatlari sifati yaxshilanishiga erishish mumkin. Jahon bankining va Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan barcha loyihalarning xaridlar tizimi prinsipiga kelsak, bu prinsiplarda jiddiy farq yo'q. Faqat biron-bir amaliy operatsiyalar borasida farqlar bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi davlat qarorlari bilan tartibga solinadi. Davlat xaridlarini tartibga solish uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilganda raqobat rivojiga komaklashilayotganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Zero, raqobat narxlar pasayishiga yordam beradi. Islohotlar jarayonida xarajatlar kamayishiga erishish mumkin. Islohotlardan biri bu elektron xaridlar tizimidir. Bu tizim davlat xaridlari shaffof bo'lishida komaklashuvchi raqobatni rivojlantirishda yordam beradi.

Elektron savdolar Respublika tovar-xomashyo birjasi, uning tumanlardagi brokerlik kontoralari va savdo maydonchalarida tizimli tarzda tashkil etilmoqda. Savdolarning kichik biznes subyektlari va budjet mablag'laridan xarid qiluvchilarga birdek qulay tarzda o'tkazilishi doimiy e'tiborda.

Davlat xaridlari bo'yicha alohida turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati hukumat komissiyasi tomonidan belgilanishi yo'lga qo'yilgan. Respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etilgan elektron savdo orqali har bir shartnoma 300 AQSH dollaridan 100 ming AQSH dollarigacha teng bo'lgan ekvivalent miqdorida amalga oshirilmoqda.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda jahon tajribasida keng tadbiriq etilgan, sinalgan va o'zining ijobiy samarasini ko'rsatgan zamonaviy elektron birja savdolari tizimi joriy etilmoqda.

Bunday savdolari tashkil etish uchun Davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali (Davlatxarid.uz, Xarid.uz, Goszakupki.uz) yaratilgan. Barcha tashkilotlar davlat xaridlarini markazlashtirilgan manba hisobidan oladi. Shu bois bo'ladigan xaridlar to'g'risidagi e'lon 30 kundan kam bo'lmagan muddatda tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchi aniqlangunga qadar maxsus informatsion portalga kiritilmoqda. Bu ham davlat xaridlari jarayonining ochiq-oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning mazkur tarmog'i korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish ko'zda tutilgan.

Ayni paytda elektron savdodan keng foydalanilmoqda. Davlat xaridlari jarayonida tender (konkurs) savdolarining o'tishi juda muhimdir. Tender savdosini to'g'ri tashkil etish uchun O'zbekiston Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasida maxsus nazorat bo'limi ish olib borayotir. Savdolarida o'zaro til biriktirish, korrupsion yo'l bilan tender savdolari o'tkazilgani aniqlansa, qonunchilikda belgilangan tartibda shu korxonalar va tender ishtirokchilariga nisbatan chora ko'riladi. Shuningdek, bu tender savdosi o'z kuchini yo'qotadi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini qaror toptirish va har tomonlama mustahkamlash borasida yaratilayotgan bunday shart-sharoitlar sog'lom raqobat rivojiga xizmat qilmoqda.

2.2. Davlat va korporativ xaridlarning amal qilish mexenizmlari

Davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish, iqtisodiyotning, jumladan, sanoatni hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning yangi imkoniyatlari yaratilmoqda. Davlat va korporativ xaridlar o'ziga xos tizim bo'lib, uning asosiy turlarini tender, tanlov, elektron auksion savdolar, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, kapital qurilish bo'yicha tanlov savdolarini tashkil etadi.

Davlat va korporativ xaridlarning iqtisodiyotdagi o'ziga xos o'рни va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu tizimni joriy etishga mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda davlat va korporativ xaridlar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojida katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanib, u byudjet barqarorligini saqlashning, shuningdek, davlat sektorini zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "2011 yilda birjada savdo ishtirokchilarining yuqori darajadagi raqobatini va teng ishtirokini ta'minlaydigan, elektron savdo shaklida amalga oshiriladigan zamonaviy davlat xaridlari tizimi joriy etilgani har tomonlama e'tiborga va qo'llab-quvvatlashga loyiqdir.

2013 yilda elektron savdolardagi davlat xaridlari hajmi 417 milliard so'mni tashkil etdi va savdo yakunlari bo'yicha 83 milliard so'mlik byudjet mablag'lari tejab qolindi. Bunda davlat xaridlari doirasida sotuvga qo'yilgan tovar va xizmatlarning 83 foizdan ziyodi kichik biznes sub'ektlari tomonidan amalga oshirilganini alohida qayd etish kerak.

Bundan tashqari, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni, bankdagi hisobraqamlari va plastik kartochkalardan foydalangan holda, internet tarmog'i va

mobil telefon orqali, aholidan qo'shimcha vositachilik haqini olmasdan amalga oshirish tizimi joriy etildi"²⁷

Davlat xaridlari - Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga va Davlat xaridlari bo'yicha maxsus komissiya tomonidan aniqlanadigan ro'yxat bo'yicha boshqa markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari hisoblanadi. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha savdolarini o'tkazish to'g'risidagi e'lon etkazib beruvchi — savdolarining g'olibini aniqlash sanasidan kamida 30 kun oldin joylashtirilishi lozim bo'ladi.

Korporativ xaridlar²⁸ - davlat ulushi ustun bo'lgan tabiiy monopoliyalar sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlar elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro'yxat bo'yicha ustav fondidagi davlat ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan tabiiy monopoliyalar sub'ektlari, davlat unitar korxonalari va xo'jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari hisoblanadi. Korporativ xaridlarini tashkil etish bo'yicha savdolarini o'tkazish to'g'risidagi e'lon etkazib beruvchi — savdolarining g'olibini aniqlash sanasidan kamida 15 kun oldin joylashtirilishi zarur.

Davlat buyurtmasini yoki korporativ buyurtmani joylashtirish, birjadan tashqari bozorda mahsulotning yuqori likvidli turlarini sotish natijalari to'g'risidagi axborot tashkilotlar yoki ularning agentlari tomonidan axborotni kontraktlar tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechikmay maxsus axborot portalida ma'lumotlari bazasiga bevosita kiritish orqali belgilab qo'yilgan.

Korporativ xaridlarni tashkil etish bo'yicha savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'lonni maxsus axborot portalida joylashtirish uchun birja tomonidan tashkilotdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda birja tasdiqlaydigan miqdorlarda to'lov undiriladi.

Byudjet tashkilotlari savdolar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari to'g'risidagi axborotni maxsus axborot portalida joylashtirish

²⁷ Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" – T.: // Halq so'zi gazetasi. 2014 yil 18 yanvar, № 13.

²⁸ O.Komolov, Sh.Sultanov. Moliyaviy innovatsiyalar: Davlat va korporativ xaridlar. «Moliya» jurnal. – Toshkent, 2014. 2-son

uchun to'lovlardan ozod qilinadi. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'lonni maxsus axborot portalida joylashtirish uchun agent tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda birja aniqlaydigan cheklangan miqdordan oshmaydigan miqdorda to'lov undiriladi.

Elektron tizimda davlat yoki korporativ buyurtma bo'yicha kontrakt tuzishning kafolatlari kafolatlovchi etkazib beruvchilarni davlat yoki korporativ xaridlar jarayonida qatnashgan holda ta'minlanishi mumkin, ular savdolarida g'olib chiqqan etkazib beruvchi kontraktni imzolashni rad etgan yoki undan boshqacha tarzda bosh tortgan taqdirda kontraktni qonun doirasida belgilangan tartibda imzolashishi mumkin.

Qonun hujjatlariga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ayrim turlarining davlat xaridlari faqat yoki ustun darajada kichik biznes sub'ektlaridan amalga oshirilishi kerak bo'lsa, savdolar o'tkazish to'g'risidagi e'londa ushbu shart majburiy tartibda bayon etiladi.

Agarki qonun hujjatlariga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) alohida turlarining davlat xaridlari faqat kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan amalga oshirilishi kerak bo'lsa, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanmaydigan etkazib beruvchilar savdolarida qatnashishga ruxsat berilmaydi.

Ayni vaqtda birja maxsus axborot portalida joylashtirilgan axborotning ma'lumotlar bazalarida u joylashtirilgan vaqtdan boshlab besh yil mobaynida saqlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, birja maxsus axborot portalidagi quyidagilar:

elektron savdolar yoki tender (tender savdolari) vositasida davlat yoki korporativ xaridlarni o'tkazish to'g'risida e'lonlar haqidagi;

davlat va korporativ xaridlarning har yilgi yoki choraklik reja-jadvallari to'g'risidagi;

elektron savdolar yoki tender (tender savdolari)ni o'tkazish natijalari bo'yicha davlat va korporativ buyurtmalarni joylashtirish natijalari to'g'risidagi;

uning bo'yicha o'tkazilgan birja savdolari natijalariga ko'ra vujudga kelgan narxlar to'g'risidagi;

birjadan tashqari bozorda sotiladigan mahsulotning yuqori likvidli va monopol turlari narxlari to'g'risidagi;

nohalol etkazib beruvchilar reestrtdagi;

kafolatlovchi etkazib beruvchilar reestrtdagi;

davlat va korporativ xaridlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan tashkilotlarga, shu jumladan buyurtmachilar va etkazib beruvchilarning mansabdor shaxslariga nisbatan ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlardan erkin foydalanilishini ta'minlaydi.

Birja davlat va korporativ xaridlarni amalga oshirish jarayoni yuzasidan zarur darajada nazoratni amalga oshirish, narxlarni manipulyatsiya qilishga qarshi kurashish, moddiy-texnika resurslarining eng muhim turlarini qayta sotish va narxlar bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan cheklashlarga rioya etish maqsadida maxsus axborot portalida saqlanayotgan axborotlardan davlat va xo'jalik boshqaruvi, boshqa vakolatli organlarning foydalanilishini belgilangan tartibda ta'minlaydi.

Maxsus axborot portalida axborotni joylashtirish va undan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda birja bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, savdolar kamida ikki nafar etkazib beruvchi qatnashsa savdolar bo'lib o'tgan deb hisoblanadi. Davlat xaridlarini tashkil etishda 30 kun mobaynida yoki korporativ xaridlarni tashkil etishda 15 kun mobaynida savdolar kam ikki nafari kam etkazib beruvchi qatnashsa, savdolar bo'lib o'tmagan deb hisoblanadi, savdolar g'olibi aniqlanmaydi, buyurtmachi savdolarini 10 kunga uzaytiradi. Savdolarini uzaytirish buyurtmachi tomonidan, asosiy savdolar tugagan vaqtdan boshlab amalga oshiriladi.

Savdolarini uzaytirishda buyurtmachi, zarurat bo'lganda, boshlang'ich narxni aniqlashtirishga haqlidir. Uzaytirilgan savdolar bo'lib o'tmagan deb e'lon qilingan taqdirda elektron tizim buyurtmachining buyurtmanomasini kafolatlovchining buyurtmanomasi bilan birlashtiradi. Ular bo'yicha kafolatlovchi etkazib

beruvchilarning buyurtmanomolari yo'q bo'lgan uzaytirilgan savdolar bo'lib o'tmagan deb e'lon qilingan taqdirda buyurtmachilar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni kamida uchta xo'jalik yurituvchi sub'ektga tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olishning oxirgi buyurtmanomada e'lon qilingan shartlarini o'zgartirmasdan sotib olish yuzasidan takliflar yuborish yo'li bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida sotib olishlari mumkin. Bunda buyurtmachilar elektron tizimga yangi buyurtmanomani joylashtirish huquqiga egadirlar.

Bundan tashqari, buyurtmachilar eng yaxshi takliflar tanlovi g'olibini aniqlash vaqtida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotib olish yuzasidan taklif yuborilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning maxsus axborot portalida joylashtirilgan nohalol etkazib beruvchilar reestrda yo'qligini tekshirishi va unga ishonch hosil qilishi shart.

Etkazib beruvchilardan takliflar bo'lmasligi (yoki savdolarida faqat bir nafar etkazib beruvchi qatnashishi) sababli, byudjetdan mablag' oluvchi hisoblangan buyurtmachi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi bo'yicha savdolar bo'lib o'tmagan deb e'tirof etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari (keyingi o'rinlarda g'aznachilik organlari deb ataladi) bilan kelishilgan holda savdolarini uzaytirmasdan buyurtmani joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Byudjetdan mablag' oluvchi hisoblangan buyurtmachi oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi bo'yicha buyurtmani savdoni uzaytirmasdan joylashtirish to'g'risidagi qarorni kelishish uchun tegishli g'aznachilik organiga lot raqamini ko'rsatgan holda yozma murojaat yuboradi. Bunda g'aznachilik organlari uch ish kuni mobaynida birja tomonidan ma'lumotlar bazasining elektron aloqasi vositasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga taqdim qilingan bo'lib o'tmagan bitimlar reestrda lot tartib raqamining mavjudligini tekshiradilar.

Umuman olganda, tizimdagi munosabatlarning qonunchilik negizi shakllantirildi. Davlat xaridlari bilan bog'liq jarayonlarni huquqiy tartibga solishda dastlab Fuqarolik kodeksi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 29

avgustdagi “Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi, 2000 yil 21 noyabrdagi “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlar muhim omil bo’lib xizmat qilgan bo’lsa, keyingi yillarda bu sohada yangi qadamlar qo’yildi.

Bunga esa mamlakatimiz Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to’g’risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yildagi 5 apreldagi “Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub’ektlarining foydalanishini kengaytirish to’g’risida”gi qarori muhim asos bo’ldi.

Mazkur dasturlar hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi esa Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 1 apreldagi “Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yildagi 11 iyundagi “Davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida ta’minlanmoqda. Alohida e’tirofqa molik jihati shuki, ushbu qarorlarga muvofiq, tasdiqlangan davlat va korporativ xaridlar bo’yicha hukumat komissiyasining ishchi organi faoliyati yo’lga qo’yildi. Bu bilan davlat xaridlari bo’yicha axborot bazasini shakllantirish, ushbu xaridlarni amalga oshirishda narxlarni shakllantirish jarayonini nazorat qilish imkoni yaratildi.

Ko’rinib turibdiki, davlat va korporativ xaridlar sohasini rivojlantirishga qaratilib qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar hamda ko’rilayotgan choralar qo’yilgan maqsadlarga erishishning asosiy omili bo’lmoqda.

Ayni paytda kuzatilayotgan samaralar salmog’ini yanada oshirish, davlat va korporativ xaridlar amaliyotini bundan ham kengaytirish, shu orqali davlat bilan xususiy sektor o’rtasidagi hamkorlik imkoniyatlaridan unumli foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo’lib turibdi.

Davlat va korporativ xaridlarni rivojlantirishda quyidagi amaliy tavsiyalarni yanada qo'llash maqsadga muvofiqdir²⁹. Jumladan:

bugungi kunda mamlakatimiz YaIMda kichik biznesning ulushini oshirishdek bir vaqtda, elektron xaridlar jarayoniga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini yanada faol va keng ko'lamda jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

tovar birjasida o'tkaziladigan elektron savdolarida davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliya sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar guruhini yanada oshirish;

elektron xaridlarni amalga oshirishda oshkoralikni ta'minlash yuzasidan doimiy monitoringni olib borish, raqobatni rivojlantirishni rag'batlantirish va mazkur sohada qonun hujjatlarini takomillashtirish;

korporativ xaridlar jarayonini tartibga soladigan, shuningdek kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berishga korporativ buyurtmalar olishga imkoniyatlarni kengaytirish, korporativ xaridlarni joylashtirishda oshkoralik, ochiq-ravshanlikni ta'minlash va raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora tadbirlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Davlat sektori faoliyatining hamda byudjetning barqarorligini ta'minlash, davlat xarajatlarini optimallashtirish, modernizatsiyalash loyihalarining miqyosini kengaytirish, iqtisodiy o'sish jarayonini boshqarish va rag'batlantirishdan iborat bo'lgan davlat xaridlari tizimining qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur jarayonda mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda ushbu yo'nalishda hali to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlarning tahlili, shuningdek, bu boradagi xalqaro tajribani o'rganish manbalari muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

²⁹ O.Komolov, Sh.Sultanov. Moliyaviy innovatsiyalar: Davlat va korporativ xaridlar. «Moliya» jurnal. – Toshkent, 2014. 2-son

II-bob bo'yicha xulosalar

Bugungi kunda, mamlakatimizda davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi roli katta ahamiyat berildi. Uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun esa tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur bo'ladi. Davlat xaridlari esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar byudjet muvozanatini saqlashga bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan davlat xaridlari miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun uning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhim masaladir. Bundan tashqari, uning yordamida kichik biznesni, sanoatning innovatsion sohalarini rivojlanishini rag'batlantirish mumkin. Umuman, davlat xaridi degani davlat ehtiyojlari uchun tovar, xizmat va ishlar to'liq yoki qisman byudjet mablag'lari evaziga sotib olinishidir. U o'z ichiga maktabga oddiy ruchka, qog'oz sotib olishdan boshlab, maktablar kollejlar, yo'l qurilishigacha qamrab oladi.

Davlat xaridlarining vazifalaridavlat boshqaruvi faoliyati uchun zarur tovar, xizmat va ishlar bilan o'z vaqtida, kerakli miqdorda va turda, sifatda va narxda ta'minlashdan tashqari raqobatni rivojlantirish uchun davlat xaridlariga ko'proq xo'jalik sub'ektlarini jalb qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqa qaro andozalarga mos sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undashdan iboratdir. Davlat xaridlari shaffoflik, samaradorlik, qatnashchilarga teng va adolatli yondashish, hisobot berish va javobgarlik kabi tamoyillarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz.

Bu yo'nalishda ayniqsa, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish o'ziga xos ahamiyatga molikdir. Ma'lumki, davlat xaridlarining tender savdolari, tanlov, elektron auksion savdolar, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, kapital qurilish bo'yicha tanlov savsavdolari kabi turlari mavjud. Shu boisdan, ishlab chiqiladigan qonun loyihasi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda davlat xaridlarining alohida turi qaysi holatlarda qo'llanilishini aniq

ko'rsatishga, har bir tur davlat xaridlarida bajariladigan jarayon tartiblarini aniq bayon qilishga, elektron savdolarning aniqlashtirilgan tartibini hamda elektron xaridlarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratilishi lozimdir.

III-BOB: DAVLAT XARIDI UCHUN TENDERLARNI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamlakatda moliyaviy tizimni shakllantirish va barqarorlashtirish, mazkur sohani davlat tomonidan boshqarish samaradorligini belgilash iqtisodiy o'sishning asosiy shartlaridan biri sifatida amal qiladi. Davlat xaridi davlat moliyasi tizimining rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib, bir tomondan byudjet sohasi samaradorligiga, ikkinchi tomondan esa, davlat byudjeti mablag'larining maqsadli natijaviyligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur vazifa faqat davlatning tashabbusi va faol ishtirokida bajarilishi mumkin, bunda mablag'larini maqsadli boshqarish bo'yicha tegishli tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va maxsus chora-tadbirlar majmuasi amalga oshiriladi.

Byudjet Kodeksining qabul qilinishi amaldagi Soliq kodeksi bilan birgalikda davlat moliyasining yagona bir xillashtirilgan, xalqaro standartlarga mos bo'lgan konunchilik bazasini shakllantirishga, byudjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimlashtirishga, byudjet jarayonining barcha bosqichlari va darajalarida yagona huquqiy normalar va yondoshuvlar qo'llanilishiga, mamlakat byudjet tizimining ochiq-oshkoraligini va barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadi – kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va buning natijasida aholi farovonligini muntazam oshirib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatda Davlat byudjeti islohotlari izchil davom ettirilmoqda. G'aznachilik tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati Davlat byudjeti mablag'lari bilan amalga oshiriladigan xarid operatsiyalarining doimiy nazoratini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida xalq farovonligini belgilovchi asosiy omil sifatida davlat moliyasi va davlat pul aylanmasining barqarorligi belgilab olindi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida Davlat byudjeti davlatning o'z funktsiya va

vazifalarini to'liq ado etish maqsadida amalga oshirilmoqda. Moliyaviy resurslarning davlat miqyosida etarli darajada mavjudligi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy qiyinchiliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlardan xalos etuvchi manba sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – g'aznachilik sharoitida Davlat byudjetidan unumli foydalanish hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlarning muvafaqqiyati avvalombor taraqqiyot strategiyasini bilan uzviy bog'liqdir. Ta'kidlash kerakki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, davlat moliyasi, byudjet tizimi, g'aznachilik tizimi va davlat xaridi sohalaridagi tub o'zgarishlar inson farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat moliyasi, davlat byudjeti sohalarini maqsadli boshqarishning fundamental asosini inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratib berish uchun tashkil etiladi. Davlatning bevosita ishtiroki moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilib, davlat xaridi tizimida shakllangan ijobiy o'zgarishlarni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishga imkon berdi. O'tish davri tadbirlari va jarayonlarini tadrijiy amalga oshirishni ta'minlashda iqtisodiy islohotlar byudjet tizimini boshqarish jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi strategik maqsadlar nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va inqirozdan chiqish Davlat dasturini izchil amalga oshirish vazifalarini bajarishda g'aznachilik tizimining amal qilish mexanizmini takomillashtirish kerak. Byudjet kodeksi davlat maqsadli jamg'armalarini ham tartibga solishning yagona printsiplarini qo'llashni, samarali byudjet ijrosi, byudjet jarayonida barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o'zaro hamkorligi mexanizmini belgilashni, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, mahalliy byudjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlab qo'yishni, barcha darajadagi byudjetlar

o'rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Byudjet kodeksi davlat xaridini amalga oshirish tartibi, moliyaviy nazorat va monitoring, davlat moliyasi tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotini ta'minlash mexanizmini belgilaydi. Qonuniylik tamoyiliga amal qilish moliyaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlash, davlat moliya faoliyatidan ko'zlangan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish, oqibatda davlat moliyaviy va iqtisodiy qudrati, moliyaviy mustaqillikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. To'g'ri tashkil qilingan davlat xarididan foydalanish – mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi hamda dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni hal qiladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda islohotlarning huquqiy asosini barpo etish va uni muntazam ravishda islohotlarga monand ravishda takomillashtirib borishni alohida ta'kidlash zarurdir.

Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, Davlat byudjeti mablag'larini g'aznachilik tizimida boshqarish orqali byudjetning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi asosida davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar amalga oshirilishi iqtisodiyotimiz rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Byudjetni shakllantirishni mezoni sifatida byudjetning imkoniyatlarining yuqori chegarasi olinadi, tovar-moddiy boyliklarga bo'lgan real ehtiyojlarni hisobga olib, xarajatlar uchun mablag'lar ajaratiladi. Davlat xaridi faoliyatini rejalashtirishning tamoyili byudjet mablag'larining ishlatilishini samaradorligini va tejamkorligini oshirish deb belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Vakolat berilgan organlar va byudjet mablag'i oluvchilari minimal mablag'lar bilan belgilangan maqsadga erishish natijalariga qarab byudjetni tuzishlari va ijro qilishlari kerak. Davlat xaridining shaffofligini ta'minlash, ularning samaradorligini oshirishda rivojlangan davlatlar tajribasining ijobiy tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, davlat xaridlari tizimi yuksak rivojlangan mamlakatlarda ushbu soha alohida qonun bilan tartibga solinish kabi umumiy belgisi ega ekanligi ko'rsatib o'tildi. Davlat xaridi tartib-

qoidalarini takomillashtirishda asosiy e'tiborni 2012 yilda boshlangan yangiliklarni oxirgacha etkazishning muhimligi, etkazib beruvchilarni tanlashda yangi usullardan kengroq foydalanish zarurligini, etkazib beruvchilar va buyurmachilar huquqlarini himoya qilish jarayonini soddalashtirish va qonunchilik yagona yondashuvlar asosida qurilishi shart. Byudjet tashkilotlarida debitor va kreditor qarzdorlikka chek qo'yish, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasida tasdiqlangan xarajatlarini byudjet tasnifi bo'yicha xarajat qilinishi nazorat qilish, byudjet tashkilotlari uchun olinadigan mahsulotlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar uchun tuziladigan shartnomalarni qonuniy tuzilishi, tovarlar yoki xizmatlar sifatli bo'lishi uchun tenderlar va tanlovlar orqali shartnomalar tuzish, byudjet mablag'ini aniq maqsadlarga sarflanishini nazorat qilish yuqori samara beradi.

O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlarning eng asosiysi g'aznachilik tizimini to'liq joriy qilishdir. Davlat byudjeti ijrosida foydalanilayotgan g'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisidan iborat. Bu chora-tadbirlar Davlat byudjetining yangi byudjet tasnifi asosidagi xarajatlari ijrosidagi davlat xaridlarini amalga oshirishni hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligi bo'yicha dolzarb masalalarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasining g'aznachilik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni hamda joriy va dastlabki nazorat samaradorligini takomillashtirish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanishga e'tibor qaratish, g'aznachilik operatsiyalarining nazoratini takomillashtirish muhim vazifa etib belgilangan.

Shu bilan birga dunyodagi ko'plab mamlakatlar singari O'zbekiston Respublikasida davlat xaridi tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini ochiq-oydinligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat, davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish

darajasini oshirish ham ko'zda tutilgan.

Davlat byudjeti ijrosining G'aznachilik tizimiga o'tilishini, byudjet tizimida izchil amalga oshirilayotgan muhim institutsional o'zgarishlar sifatida ko'rsatish mumkin.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimining o'rni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlardan tashkil topadi. Ushbu munosabatlar g'aznachilik tizimida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha etarlicha muammolar qamrab olinganligi, davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish markaziy o'rinni egallaydi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo'llanilishi, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimini bosqichma-bosqich joriy etilishi Davlat byudjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.

Davlat xaridi tizimini isloh etish kompleks yondashuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbati tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining shakllantirishini talab etadi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yuqoridagi ko'rsatilgan yo'nalishlardagi

kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa sub'ektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirishning dolzarbligi bu sohaning nazariy masalalarini yoritishni taqazo etdi. O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonlarining mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini amalga oshirishda g'aznachilik tizimini rivojlantirishning yangi muammolari paydo bo'lmoqda. Davlat moliyasi sohasidagi islohotlar natijasida davlat moliyasini boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu o'z navbatida, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini ta'minlashga, uning zamonaviy mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimidagi islohotlar nafaqat o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga katta turtki berdi. 2000 yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lsalar, hozir ular qurilish-montaj va loyihalarning turli-tumanligi va sifat bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qila oladilar. Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital qurilish sohasiga davlat buyurtmasi aholi bandligi oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Xuddi shunday misollarni qolgan sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida ham keltirib o'tish mumkin.

Har qanday mamlakatda ham, davlat xaridini amalga oshirishning huquqiy asoslarini shakllantirish va uni doimiy tarzda takomillashtirib borish, davlat moliya tizimining muhim strategik vazifalaridan hisoblanadi.

3-bob bo'yicha xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizning turli sohalarini rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Respublikamiz budjetini isloh qilish orqali davlat xaridlarini takomillastirishga ham katta e'tibor qaratilayotgani bir tomondan budjet mablag'laridan samarali foydalanishni, ikkinchi tomonda davlat xaridlarini rag'batlantirishni ta'minlamoqda. Ya'ni davlat budjetida yagona "G'aznachilik tizimi"ning joriy etilishi davlat xaridlarida ochiq va oshkoralikni, shaffoflikni va xaridlarda korrupsiyani oldini olishni ta'minlamoqda. Shu o'rinda O'zbekistonda Respublika Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475 – sonli «Davlat xaridi tizimini optimallashtirish va unga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq, davlat byudjeti mablag'lari ijrosining samaradorligi ta'minlash, tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berishda davlat buyurtmasini olishga kichik biznes ishtirokini kengaytirish, davlat xaridini amalga oshirishda shaffoflikni ta'minlash va raqobatni yanada rivojlantirish maqsadida muhim vazifalar belgilab berildi.

XULOSA

Davlat xaridini tashkil etish jarayonlarini boshqarish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mablag'larini samarali boshqarish, shuningdek, xarid jarayonlarida raqobat muhitini shakllantirish, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini ushbu sohaga kengroq jalb etish kabi qator maqsadlarni ko'zlaydi.

Xususan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zaruratining dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovatsion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish har bir mamlakat hukumatlari oldida muhim masala bo'lib qolmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: “2011 yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqishi va amalda qo'llash, kichik biznes korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi topshiriladi”³⁰. Shundan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilda qabul qilingan “Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida”gi PQ-

³⁰ Xalq so'zi gazetasi. 22 yanvar 2011 yil.

1475 sonli qarori, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishga bo'lgan jiddiy e'tiborni bildiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

-iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

-ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi ko'rsatilgan yo'nalishlardagi muammolarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa sub'ektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Xususan, davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha tizimli yondoshuvga bo'lgan talab hamda davlat xaridining iqtisodiyotning ayrim sohalariga bo'lgan ta'sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari shakllantirilmoqda.

Davlat mablag'larini oqilona boshqarish, xarid tizimi modelini respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Tenderlar orqali xaridni tashkil etishda ochiqlik va erkin raqobatni ta'minlaydigan mexanizmni tashkil etish,

baholar monitoringini takomillashtirish, davlat buyurtmalari uchun shartnoma shartlarini bajarilishi yuzasidan mas'uliyatini yanada oshirish, tenderdan tashqari savdolari xolisligini ta'minlash kabi qator masalalarni ham ilmiy-uslubiy jihatdan, ham amaliy jihatdan o'rganish davlat xaridi tizimini boshqarishning dolzarbligini belgilab beradi.

Davlat xaridini tashkil etishning yangicha tamoyillarga asoslangan tizim shakllantirilgan ekan, tabiiy ravishda, bu sohada o'z echimini kutayotgan qator muammolar mavjudligini ko'rsatish mumkin. Jumladan:

-davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani etarli darajada rivojlanmagan;

-byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotidagi ayrim kamchiliklarning mavjud;

-davlat xaridini amalga oshiruvchi va uni nazoratini ta'minlovchi malakali kadrlarning etishmasligi;

davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimining etarlicha rivojlanmaganligi;

-kichik va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridi tizimida ishtiroki bo'yicha tajribalarning etishmasligi;

-davlat xaridini amalga oshirishning mavjud tizimi mamlakatimiz miqiyosida davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermaydi;

-respublikamizning davlat xaridi tizimida birja va g'aznachilik faoliyatini yanada muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi

Davlat xaridini tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etmoqda. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatini tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes sub'ektlarini ishtirokni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014y. -40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2014 yil 1 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub'ektlarining foydalanishini kengaytirish to'g'risida"gi 2013 yildagi 5 aprel PQ-1948-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2013 yildagi 11 iyun 166-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi 2011 yildagi 7 fevral PQ-1475-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron auksion savdolari tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 2011 yildagi 1 aprel 100-sonli qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2099-sonli Qarori 2013 yil 25 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1887-sonli Qarori 2012 yil 25 dekabr.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1675-sonli qarori 2011 yil 30 dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1449-sonli qarori 2010 yil 24 dekabr.

13. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 19 iyuldagi 148-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabrda 414-son qarori

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va ma'ruzalari

16. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56
18. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
19. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.
20. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.
21. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.
22. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.
23. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.
24. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy

- dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi 17.01.2015 yil
- 25.Karimov I.A. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014. www.uza.uz.
- 26.Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 27.Karimov I.A. "2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 28.Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
- 29.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -80 b.

III. Darslik va o'quv adabiyotlari:

- 30.Burxanov U.A. "Davlat xaridi" O'quv ko'llanma. - T.: infoCOMUZ MChJ, 2010. - 160 b.
- 31.Burxanov U., Atamuradov T. "Davlat xaridi" O'quv qo'llanma. -T.: Fan va texnologiya, 2012. - 152 b.
- 32.Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.
- 33.Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
- 34.Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo'llari. / Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004 y.

35. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
36. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. -544 b.
37. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
38. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik dlya vuzov /Pod red. D.G.Chernika. M: Yunita-Dana, 2010. -345 s.
39. Finansi. /Pod red. L.A. Drobozinoy –M.: YuNITI, 2010. -350 s.
40. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: "Norma", 2009. –184 b.
41. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2007. –232 b.
42. Toshmurodova B., Elmiraev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010
43. Mandroshchenko O., Pinskaya M. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. –M.: "Dashkov i K", 2010
44. Chernik D. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. – M.: "Yunita-Dana", 2010
45. Jidkova E. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. –M.: "Eksmo", 2010
46. Xudoleev V. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnik. – M.: "Forum". 2009
47. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.
48. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
49. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: "Akademiya", 2005. - B. 130
50. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
51. Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
52. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. - T.: "Akademiya". 2005. 123-bet
53. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma.- T.: Iqtisod-moliya, 2008. -287b.
54. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov Budjet-soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod va moliya, 2005.
55. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.-104 b.
56. Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma / Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. – Toshkent, 2013 – 382 bet.

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

57. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8
58. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar. // Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
59. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. // Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2005. - B. 156-157.
60. O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. // O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 81-82.
61. O'rmonov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik kayta jixozlashni soliqlar vositasida rag'batlantirish. // Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish - eng muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 20-21.
62. O'rmonov J. Soliq siyosati islohotlari taraqqiyot omili. // Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 29-30.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

63. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010 4.-№5.
64. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2011.-№10.
65. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№12.
66. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2013.-№9.
67. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2014.-№6.
68. O'zbekiston statistik axborotnomasi. – Toshkent. 2008 - 2012.

VI. Internet saytlari.

69. <http://www.press-service.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti

- 70.<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
- 71.<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
- 72.<http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
- 73.<http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
- 74.<http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
- 75.<http://www.uzex.xarid.uz>
- 76.<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
- 77.<http://www.tfi.uz> - Toshkent moliya instituti sayti.